

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI

Qo‘lyozma huquqida

JO‘RAYEV ILHOM ABDUSATTOROVICH

O‘ZBEKISTON DAVLATCHILIGI TARIXIDA BOSHQARUV
TIZIMINING SHAKLLANISHI

«O‘zbekiston tarixi» mutaxassisligi bo‘yicha magistr ilmiy darajasini olish
uchun yozilgan

DISSERTATSIYA

Ilmiy rahbar: tarix fanlari doktori, prof.

Sh.B. Shaydullayev

Termiz -2024

KIRISH.....	
I-BOB. O‘ZBEKISTON HUDUDIDA ENG QADIMGI DAVLATCHILIKNING PAYDO BO‘LISHINING TARIXIY SABABLARI.	
1.1. Davlatchilikning yuzaga kelishi va tarixiy taraqqiyoti	
1.2. Davlatchilining paydo bo'lishiga olib keluvchi tarixiy omillar.	
II-BOB. QADIMGI O‘ZBEK DAVLATCHILIGI SHAKILLANISHINING O‘ZIGA XOS YO‘NALISHLARI.	
2.1. Qadimgi o‘zbek davlatchiligining shakllanishi bosqichlari.	
2.2. Qadimgi Baqtriyadavlati.	
2.3. Qadimgi Xorazm davlati.	
III-BOB. ILK O‘RA ASR O‘ZBEKISTON HUDUDLARIDAGI DAVLATLAR	
3.1. Ilk o‘rta asrlarda davlatchilik va boshqaruvning rivojlanishi.	
3.2. Ilk O‘rta asr davlatlarining o‘ziga xos xususiyatlari.	
XULOSA	
ILOVALAR	
ADABIYOTLAR RO‘YXATI	

Kirish

Mavzuning dolzarbligi. O'zbekistonda boshqaruv tizimining shakllanish tarixini o'rganish mamlakatdagi zamonaviy siyosiy va ijtimoiy jarayonlarni tushunish uchun katta ahamiyatga ega. Davlat boshqaruvi tizimining tarixiy rivojlanish bosqichlarini tahlil qilish uning shakllanishining qonuniyatlari va xususiyatlarini aniqlash, shuningdek, shakllanishiga ta'sir ko'rsatgan omillarni aniqlash imkonini beradi.

O'zbekiston Respublikasi mustaqilligining qo'lga kiritilishi boy tariximiz va merosimizni tiklash, mavjud birlamchi manbalarga tayangan holda, ularni xolisona va haqqoniy, adolat hamda tarixiylik nuqtai nazaridan o'rganish va o'qitish imkonini berdi. O'zbekistonning har qanday mafkuradan xoli bo'lgan hamda chuqur ilmiy tahlillarga asoslangan haqiqiy tarixini o'rganish va undan saboq olish davr taqozosiga aylandi.

Vatanimiz tarixi insoniyat tarixining ajralmas qismi bo'lib, hozirgi O'zbekiston deb ataluvchi hudud, ya'ni bizning yurtimiz nafaqat sharq, balki jahon sivilizatsiyasi beshiklaridan biri bo'lganini butun jahon tan olmoqda.

Sivilizatsiya nafaqat insoniyat madaniyatining rivoji, balki davlatchilik taraqqiyoti hamdir. Turli xalqlar o'z davlatchiligining shakllanish bosqichini ijtimoiy-iqtisodiy va tarixiy-madaniy vaziyatlarga bog'liq xolda turli tarixiy davrlarda bosib o'tdilar. Ammo, shunisi ma'lumki, ilk davlatlar ishlab chiqaruvchi xo'jalik: dehqonchilik va chorvachilik paydo bo'lgan joylardagina shakllangan. Ming yillar davomida faqat termachilik, baliqchilik va ovchilik hisobiga yashab kelgan, dehqonchilikni bilmagan ko'pgina qabilalar va elatlar davlatchilik bosqichiga ko'tarila olmagan. O'zbekiston hududida dehqonchilik miloddan avvalgi III ming yillik so'ngida paydo bo'lgan va miloddan avvalgi II ming yillikda keng tarqalgan. Huddi shu davrda o'lkamizda doimiy o'troq makonlar paydo bo'lgan. Bu, o'z-o'zidan, yuqorida yuqorida ta'kidlaganimizdek, o'zbek xalqi ajdodlarining qadimgi dehqonchilik madaniyati rivojlanishi asosida ilk davlatchilik jarayoni boshlanishiga olib keldi.

XX asrning 50-60 yillariga kelib, O'rta Osiyoning turli hududlarida amalga oshirilgan arxeologik tadqiqotlar natijasida olingan ma'lumotlarni yozma manbalardagi ma'lumotlar bilan taqqoslash imkoniyati yuzaga keldi. Shunga qaramasdan mintaqada ilk davlatchilik boshqaruv tizimining shakllanishiga va rivojlanishi mavzusi mahalliy xalqlarning milliy tarixi sifatida talqin qilinmadi.

O'zbekiston hududidagi eng qadimgi davlatlar haqidagi asosiy manbalar – «Avesta» kitobi, ahamoniylarning mixxat yozuvlari, yunon-rim tarixchilarining ma'lumotlari hisoblanadi. So'nggi yillarda Baqtriya, Xorazm va So'g'd hududlarida olib borilgan arxeologik tadqiqotlar bu ma'lumotlarni tasdiqlash bilan birga yangi ma'lumotlar bilan boyitmoqda.

Davlatning tarixiy ildizlarini, u qanday sharoitlarda paydo bo'lganligi, qanday rivojlanganligi, toponimikasi va hududiy-mintaqaviy jihatlari, o'z davri jamiyatida qanday mavqega ega bo'lganligi hamda zamonaviy voqelikda qanday mazmun kasb etganligini bilmasdan turib davlatchilikning tarixini o'rganish mumkin emas. Biz tanlagan mavzuning muhim jihatlaridan biri dissertatsiyada yuqoridagi masalalarga aniqlik kiritishdir.

Mavzuning o'rganilish darajasi. Tadqiqotchilar tomonidan qadimgi tarixning asosiy xususiyatlari va davlatchilikning vujudga kelishi masalalari tahlil etilmoqda¹. Ilk davlatlarning paydo bo'lishi va turlari, hukmdorlar unvonlari kabi masalalar akademik E.V. Rtveladze, ilk davlatlarning shakllari va xronologiyasi, boshqaruv shakllari, etnik migratsiya va bosqinchilik natijasida yangi davlatlarning paydo bo'lishi A.S. Sagdullayev, ilk davlatchilikning boshlanishi Sh.Shaydullayev, o'zbek davlatchiligining uzluksiz tadrijiy rivojlanishi Azamat Ziyo asarlarida tahlil etildi².

¹ Асқаров А.А. Ўрта Осиё қадимги дунёсининг асосий хусусиятлари // ЎИФ. 1994. №6; Анорбоев А. Ўзбекистонда ilk давлатчилик ва унинг ўрганилиш тарихидаги баъзи бир муаммолар. // О'zbekiston tarixi. 2004. № 4.

²Ртвеладзе Э.В. Титулы правителей государств и владений Средней Азии в начале I тыс.до н.э. // ОНУ. – 2006. -№ 5-6. – С. 46-57; Ртвеладзе Э.В, Саидов А,Х, Абдуллаев Е.В. Қадимги Ўзбекистон цивилизацияси: давлатчилик ва ҳуқуқ тарихидан лавҳалар. – Тошкент, Адолат, - 2001. – Б. 239; Сагдуллаев А.С. Вопросы типологии и хронологии древнейших государств Средней Азии // Средняя Азия и мировая цивилизация. – Ташкент. - 1992. – С. 132-133; Шайдуллаев Ш.Б. Ўзбекистон ҳудудида давлатчиликнинг пайдо бўлиши ва ривожланиш босқичлари. Тарих фанлари доктори илмий даражасини олиш учун тақдим этилган диссертацияси автореферати. - Самарқанд, 2009.; Азамат Зиё. Ўзбек давлатчилиги тарихи. -Тошкент, 2000.

A.S.Sagdullayev va O'.Mavlonovlarning "O'zbekistonda davlat boshqaruvi tarixi (qadimgi davrlardan XIX asrning o'rtalariga qadar)" nomli o'quv qo'llanmasi nashrdan chiqdi³. Qo'llanmada boshqaruvning iqtisodiy, ijtimoiy, harbiy-siyosiy va hududiy funksiyalari, davlatchilikning ilk bosqichlaridan boshlab XIX asrning o'rtalarigacha bo'lgan tarixiy davrda davlatchilikning rivojlanish qonuniyatlari va xususiyatlari, davlat boshqaruvining mazmun va mohiyatlari ochib berildi.

O'.I. Abdullayev O'rta Osiyoda qadimgi boshqaruv va ilk davlatchilik tarixshunosligiga bag'ishlangan kitobida davlatchilikning shakllanishi bo'yicha umumlashgan xulosalar chiqargan:

- bronza davrida "voha-davlatlar";
- mil.av. I ming yillikning boshlarida "voha-davlatlar" va dastlabki siyosiy uyushmalar;
- ilk temir davrida hududiy jihatdan o'rtamiyona davlatlar paydo bo'lgan deyilgan⁴. Bu O'rta Osiyoning barcha mintaqasi uchun bronza davrida voha-davlatlar shakllangan degan xulosani beradi. Vohalanki, Qadimgi Sharq dunyosi bilan doimiy madaniy aloqada bo'lgan O'rta Osiyoning janubiy mintaqalari uchun bronza davrida boshqaruv, davlatchilik terminlarini ishlatish mumkin, xolos. Mil.av. I ming yillikning boshlarida Xorazm, Toshkent yoki Usrushona kabi mintaqalarda siyosiy uyushmalar yoki ilk temir davrida o'rtamiyona davlatlar shakllangan edimi? Bunday umumlashgan xarakterdagi tadqiqotlar fan rivoji uchun xizmat qilmaydi. O'rta Osiyoda davlatchilikning paydo bo'lishi bir vaqtda kechmagan, shu sababli uning tarixshunosligi tarixiy mintaqalar bo'yicha tadqiq etilganda, har bir mintaqada davlatchiligi uchun to'g'ri tarixiy xulosalar chiqarilgan bo'lar edi.

³ Сагдуллаев А, Мавлонов Ў. Ўзбекистонда давлат бошқаруви тарихи (қадимги даврдан XIX асрнинг ўрталарига қадар). Тошкент, 2006.

⁴ Абдуллаев Ў.И. Ўрта Осиёда қадимги бошқарув ва ilk давлатчилик тарихшunosлиги. – Тошкент, Академиа, 2009. – Б.142; Абдуллаев У.И. Историография древней системы управления и ранней государственности Средней Азии (XX-начала XXI в.): Автореф. дисс. ... канд. истор. наук. – Ташкент, 2008. – 21 с.

Mualliflar jamoasi tomonidan yozilgan “O‘zbekiston davlatchiligi tarixi”ning birinchi jildi nashrdan chiqdi⁵. U mil.av. II ming yillikdan milodiy III asrlarda qadimiy davlatchilikning paydo bo‘lishi va rivojlanishiga bag‘ishlangan. O‘rganilgan davr davlatchiligi olti davr va uchta tipga bo‘lingan.

Shuningdek, Baqtriya hududida ilk sinfiy munosabatlarning vujudga kelishi va davlatchilik tarixi bo‘yicha XIX asr so‘nggida yevropa tarixchilari o‘rtasida munozaralar boshlangan. V. Geyger⁶, E. Raysh⁷, T. Noldeke⁸, XX asr boshida J. Prasheklar⁹ Baqtriya tarixi bilan shug‘ullanib, Ahamoniylar imperiyasiga qadar ham qandaydir siyosiy birlashmalar bo‘lganligi to‘g‘risida ma‘lumotlar bergan. Ular asosan quyidagi antik davr tarixchilarining yozma manbalariga tayanganlar.

Yirik sharqshunos olim V.V. Bartold rus tarixchilari orasida birinchi bo‘lib, Baqtriyada Ahamoniylar imperiyasiga qadar ham davlatchilik bo‘lganligini aytib, Ktesey Knidskiy ma‘lumotlari asosan o‘sha vaqtda bitilgan O‘rta Osiyo epik traditsiyalariga asoslanib yozilgan, degan xulosaga kelgan .

S.P. Tolstov Diodorning Baqtriya shaharlari, xususan Baqtr shahri to‘g‘risidagi ma‘lumotlari, ya‘ni shaharning arki, qal‘a devorlarining shaharni o‘rab turganligi haqidagi ma‘lumoti asosida Ahamoniylar imperiyasiga qadar Baqtriyada davlatchilik bo‘lganligini tan oladi¹⁰. Ikkinchi jahon urushidan keyingi davrlarga mansub deyarli barcha ilmiy tadqiqotlarda Ahamoniylar bosqiniga qadar Qadimgi Baqtriyada davlatchilik bo‘lganligi qayd etilgan¹¹.

Shundan so‘ng, Baqtriya hududida bronza davriga oid Sopolli, Dashtli¹²,

⁵ История государственности Узбекистана. - Том I. – Ташкент, Узбекистан. – 2009. – 560 с.

⁶ Geiger W. Ostiranische Kultur im Altertum. Erlangen, 1982.V. 66; Geiger W. Civilization of the Eastern Iranians in Ancient Times. – London, 1985. V. 45.

⁷ Reisch E. Baktrionoi / Paulys Real-Encyclopädie. T. II. 1896.

⁸ Nildeke T. Iranisches Nationalepos, Grundriss der Iranische Philologie, II. 1896-1904.V.141.

⁹ Prasek J.D. Geschichte der Meder und Perser. Bd. I. - Gotha, 1906. V.50-54

¹⁰ Толстов С.П. Основные вопросы древней истории Средней Азии // ВДИ. - М.,1938 . - № 1. - С. 183; Толстов С.П. Древний Хорезм. - М., 1948. - С. 103.

¹¹ Гафуров Б.Г. История Таджикского народа. Т.I. - М., 1955. - С. 31-32; Дьяконов И.М. Истории Мидии. - М. - Л., 1956. - С. 169; Дьяконов М.М. Очерк истории Древнего Ирана. - М., 1961; Массон В.М. Проблема древней Бактрии и новый археологический материал// СА. - М., 1958. - №2.– С. 49-65; Массон В.М. Древнеземледельческая культура Маргианы. МИА, 73. – М., 1959; Лившиц В.А. Древнейшие государственные образования / ИТН. Глава III. – Душанбе, 1963. – С. ??-??.

¹² Аскарлов А.А. Древнеземледельческая культура эпохи бронзы на юге Узбекистана. Ташкент: Фан, 1977; Аскарлов А.А., Абдуллаев Б.Н. Джаркутан. Ташкент, «Фан» 1983; Аскарлов А.А., Ширинов Т.Ш. Ранняя городская культура эпохи бронзы на юге Средней Азии, Самарканд, 1993; Сариниди В.И. Древние земледельцы Афганистана. - М., 1977.

so‘nggi bronza va ilk temir davriga oid Kuchuktepa¹³, Tillatepa¹⁴, Qiziltepa¹⁵, Qadimgi Baqtriya¹⁶ madaniyatlari ochildi. O‘rganilgan ushbu madaniyatlar asosida Ye.Ye. Kuzmina “Baqtriya uydirma emas, tarixiy haqiqatdir” degan g‘oyani ilgari surdi¹⁷.

N.M.Ikromov tadqiqotida esa Qadimgi Baqtriya kaviylari haqidagi yozma va arxeologik ma’lumotlarni qiyosiy tahlil etish asosida Baqtriya kaviylari haqidagi ma’lumotlar, kaviylar geneologiyasi, tarixiy geografiya masalalari yoritib o‘tilgan¹⁸.

Zarafshon va Qashqadaryo vohalarini birlashtiruvchi Qadimgi So‘g‘d hududida ilk davlatlarning shakllanish tarixi masalasi juda kam o‘rganilgan. Vaholanki, u Avestada Axuramazda bunyod etgan ikkinchi mamlakat sifatida tilga olingan: Gava so‘g‘diylar istiqomat qiladigan yurt. Asosiy daryosi Dardji . I.V. Pyankov “Dardji” daryosini hozirgi Darg‘om bilan bog‘laydi .

Arxeologik tadqiqotlar natijasiga ko‘ra, So‘g‘d hududida ilk sinfiy munosabatlar va uning davlatchiligi tarixi oydinlashmoqda. So‘g‘dning ajralmas qismi bo‘lgan Panjkentdan Sarazm yodgorligining topilishi So‘g‘d davlatchiligi asosi bo‘lgan jamoalarning paydo bo‘lishi va taraqqiyotini kuzatish imkoniyatini berdi. A. Isxoqovning ma’lumotlariga ko‘ra eneolit davrida Sarazm aholisi urug‘ jamoa bo‘lib, bronza davrida esa qishloq jamoa shaklida hayot kechirishgan .

A.S. Sagdullayevning Shahrizabz va Yakkabog‘ hududlaridagi ilk temir davri yodgorliklarida (Daratepa, Uzunqir, Sangir tepa I) olib borgan tadqiqotlarida Janubiy So‘g‘dda shahar madaniyatining paydo bo‘lishi va ilk davlatchilik formalarining shakllanish jarayonlari kuzatildi. Bu borada R.X. Sulaymonovning Qarshi vohasida (Yorqo‘rg‘on), M.X. Isomiddinovning Chelak tumanida (Ko‘ktepa) olib borayotgan arxeologik izlanishlari diqqatga sazavor . Eslatib

¹³ Аскарлов А.А., Альбаум Л.И. Поселение Кучуктепа. Ташкент, «Фан». 1979.

¹⁴ Сариниди В.И. Раскопки Тилля-тепе в северном Афганистане. Вып. I. - М., 1972.

¹⁵ Сагдуллаев А.С. Усадьбы древней Бактрии. Ташкент, «Фан», 1987.

¹⁶ Дьяконов М.М. Археологические работы в нижнем течении реки Кафирнигана в 1950-1951гг. МИА, 1953, . - № 37.

¹⁷ Кузьмина Е.Е. Бактрийский мираж и археологическая действительность // ВДИ. - М.,1978. - № 2. – С.

¹⁸ Икромов Н.М. Қадимги Бақтрия кавийлиги. Тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати. – Термиз, 2020.

o'tilgan yodgorliklarda ilk shaharlarning ark va shahriston qismlari tarkib topgan. Bu shaharlar egallab turgan hududlarning nafaqat iqtisodiy va madaniy, balki siyosiy va mafkuraviy markazlari ham bo'lganligini tadqiqotchilar ta'kidlashmoqda.

Xitoy yozma manbalari asosida Farg'ona shaharlari, ularning joylashishi, lokalizatsiya masalalari xitoyshunos olimlar tomonidan yoritilayotgan bo'lsa, arxeologik manbalar asosida ham Farg'ona shaharlari tarixi o'rganilmoqda. Yozma manbalarning ma'lumot berishicha, Farg'onada davlatchilik mil.av. III-II asrlardan boshlanadi. Xitoy manbalarida Farg'onada Davan (Da Yuan) davlati bo'lganligi to'g'risida o'qishimiz mumkin.

B.X. Matboboyev o'z tadqiqotlarida o'zbek davlatchiligi tarixida Davan davlatining o'rni katta ekanligini ta'kidlaydi. Uning Davan davlatining tuzilishi, hududiy chegaralari, boshqaruv tizimi va davlat hududida joylashgan shaharlar tarixiga bag'ishlangan tadqiqotlari e'lon qilindi¹⁹.

Chust madaniyati yodgorliklari sug'orilish tarmoqlariga asoslangan holda rayonlashtirilgan. Har bir iqtisodiy rayonda bittadan yirik shahar, shahar atrofida esa ko'plab qishloq tipidagi yodgorliklarning joylashishi kuzatilmoqda. Bu alomatlar, haqiqatan ham chust madaniyatining so'nggi davrlarida Farg'ona hududida shahar-davlatlarning tarkib topa boshlaganligidan dalolat beradi.

Ilk davlatlar tarixi bo'yicha yozma manbalar juda kam. Yuqorida tahlil qilib o'tganimizdek, ularni o'rganishda tadqiqotchilar talqini ham har xil. Bu borada yangi yozma manba topilishi esa haqiqatdan juda yiroq. Shu maqsadda O'zbekiston hududida ilk davlatlarning paydo bo'lishida arxeologiya fani yutuqlaridan foydalanish zarur. Arxeologiya fani yutuqlari asosida ishlab chiqilgan jamoalarning paydo bo'lishi va rivojlanishini, mehnat taqsimotining paydo bo'lishi va jamoalarning ijtimoiy guruhlarga bo'linishini, shu asosda sinflarning paydo bo'lishini, shahar madaniyatining shakllanishi va nihoyat shahar-davlatlar va uning formalarini o'rganish ushbu dissertatsiya maqsadi hisoblanadi. Qadimgi Sharqning

¹⁹Анорбоев А, Исломов У, Матбобоев Б. Ўзбекистон тарихида қадимги Фарғона. Тошкент, «ФАН» 2001; Матбобоев Б.Х. Кўрсатилган асар, 23-40 бетлар.

ajralmas bir bo‘lagi bo‘lgan O‘zbekiston hududida ilk davlatlarning paydo bo‘lishi va rivojlanishi Qadimgi Sharqdan alohida bo‘lganmi yoki o‘zaro aloqalar ta’sirida ro‘y berganmi? Shu kabi masalalar bilan shug‘ullanish hozirgi kunda o‘zbek arxeologlarining birlamchi vazifasiga aylanmoqda va bu masala ushbu dissertatsiyada baholi qudrat ko‘rib chiqildi.

Tadqiqotning maqsad va vazifalari. Mazkur magistrlik dissertatsiyasining maqsadi O‘zbekistonda qadim zamonlardan to hozirgi kungacha bo‘lgan boshqaruv tizimining shakllanish tarixini har tomonlama o‘rganishdan iborat.

Ushbu maqsadni amalga oshirish uchun quyidagi vazifalar belgilab olindi:

–O‘zbekistonda boshqaruv tizimini rivojlantirishning asosiy bosqichlarini ochib berish;

–mamlakatda boshqaruv tizimining rivojlanishiga turli sivilizatsiyalarning ta’sirini tahlil qilish;

–davlat boshqaruvi tizimini shakllantirish jarayonida shaxsning rolini aniqlash;

–turli tarixiy davrlardagi boshqaruv tizimining xususiyatlarini o'rganish;

–XX-XXI asrlarda davlat boshqaruvi tizimidagi islohotlarni tahlil qilish;

–O‘zbekistonda boshqaruv tizimining rivojlanish qonuniyatlari va xususiyatlari haqida xulosalar shakllantirish.

Tadqiqotning ob’yekti. O‘zbekistondagi boshqaruv tizimiga oid ilmiy tadqiqotlar va manbalar tadqiqot obyekti hisoblanadi.

Dissertatsiyaning ilmiy yangiliklari:

–O‘zbekistonda boshqaruv tizimining shakllanish tarixini o‘rganishga kompleks yondashuv;

–Yangi manbalar va materiallardan foydalanish;

–mamlakatda boshqaruv tizimining shakllanishiga turli sivilizatsiyalarning ta’sirini chuqur tahlil qilish;

Ilmiy-amaliy ahamiyati.O‘zbekiston ilk davlatchiligi tarixi moddiy manbalar asosida tahlil qilinib, nazariy xulosalar va takliflar berildi. Tadqiqot materiallaridan

O'zbekiston tarixining tegishli davri va mavzularini yoritishda foydalanish mumkin.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Mazkur dissertatsiya kirish, uch bob, 7 ta paragraf, xulosa, foydalanilgan manba va adabiyotlar ro'yxati va ilovadan iborat. Dissertatsiyaning umumiy hajmi _____ bet.

1. BOB O‘ZBEKISTON HUDUDIDA ENG QADIMGI DAVLATCHILIKNING PAYDO BO‘LISHINING TARIXIY SABABLARI

§ I.1. Davlatchilikning yuzaga kelishi va tarixiy taraqqiyoti.

Dastlabki davlatlar sug‘oriladigan dehqonchilik hududlari — Misr, Mesopotamiya, Elam (hozirgi Eron hududida), Hindiston va Xitoyda bundan 3,5-5 ming yillar muqaddam vujudga keldi. Sug‘orish shoxobchalarini bunyod etish bilan mehnat unumdorligining keskin oshishi ularning yuzaga kelishiga sabab bo‘ldi.

Boshqaruvning ilk bosqichlari qadimgi zamonlarga borib taqaladi. Ibtidoiy jamiyat tarixida ijtimoiy boshqaruv tamoyillari va vazifalari turli ko‘rinilarda bo‘lib, tashkil qilish. Tartibga solish. Nazorat, jamoatning ichki munosabatlarini boshqarib turish funksiyalari bilan bog‘langan edi. Shu tarzda ijtimoiy–iqtisodiy talablari, obro‘–e‘tiboriga ega, o‘zlarining shaxsiy axloqiy xislatlari, amaliy bilimlari va tajribalarini bilan boshqalardan ajralib turgan shaxslarning saralanishiga olib kelgan. Urug‘ oqsoqoli va qabilalar yo‘lboshchilari jamoalar vakillari yig‘inida (“Xalq yig‘ini”) saylangan. Ibtidoiy jamiyat tarixida yo‘lboshchi rahbar ijtimoiy foydali faoliyati bilan band bo‘lib, urug‘–qabila odatlarida asoslangan ijtimoiy hokimiyat dastlab siyosiy davlat maqomi darajasiga yetmagan ijtimoiy tashkilot shaklini o‘zida ifoda etgan.

Qadimgi davlatlar o‘z rivojlanish bosqichlarida, turli xususiyatlar va tarixiy qonuniyatlarga ega bo‘lgan. Dastavval, ilk davlatlar xo‘jalikning ishlab chiqaruvchi shakllari – dehqonchilik va chorvachilik qaerda oldin rivoj topgan bo‘lsa, o‘sha yerda vujudga keldi.

Ibtidoiy tarixda (urug‘chilik jamoasi davrida) aholining joylashuvi qon–qarindoshlik aloqalari bilan belgilanadi. U yoki bu hududda fakat bitta urug‘ a‘zolarigina yashagan. Xo‘jalik ishlab chiqaruvchi shakllarining taraqqiyoti aholi joylashuvi hududlarning kengayishiga, tashqi aloqalarning uzluksiz rivojlanishiga olib kelgan. Ishlab chiqarish zarurati va boshqa iqtisodiy omillar shuni taqozo etgan. Shu tarika aholining aralash joylashuvi jarayoni boshlangan. Bunda bir hududda turli urug‘ namoyandalari yashaydigan bo‘lgan. Ana shunday qilib,

jamiyatning yangi hududiy tashkiloti vujudga kelgan. Qarindosh–urug‘chilik jamoasi o‘rniga hududiy qo‘shnichilik jamoasi paydo bo‘lib, o‘zini iqtisodiy jihatdan ta‘minlay oladigan katta oilalar paydo bo‘lgan²⁰.

Bu jamoalar vakillari alohida uy–joylar, ekinzorlar va sug‘orish tarmoqlari bilan chegaralangan, ya‘ni, to‘la o‘zlashtirilgan va muttasil xo‘jalik va ishlab chiqarish maqsadlarida foydalanib kelingan voha–tumandarda hayot kechirib, o‘z ichki va tashqi munosabatlarida kelib chiqadigan muammolarni hal qilishda birlashishga harakat qilganlar.

Ishlab chiqarish va ijtimoiy mehnat taqsimoti, tashqi harbiy bosqinlardan himoyalash, jamoadagi diniy urf–odatlarini bajarish kabi masalalar ijtimoiy mansablar va boshqaruvning yangi rivojlanish bosqichiga asoslangan.

O‘zbek xalqi, O‘rta Osiyo xalqlari va ularning ajdodlari tarixida ilk davlatchilikning vujudga kelishi masalasini o‘rganish dolzarb vazifadir. O‘rta Osiyoda ilk davlatchilik tuzumiga bronza davridagi sug‘orma dehqonchilik rivojlanishi va ixtisoslashgan hunarmandchilik zamin yaratgan edi. Alohida ta‘kidlash joizki, O‘rta Osiyoda davlatchilik tizimiga o‘tish jarayoni faqat ichki sabablarga bog‘liq bo‘lmay, Sharqdagi yuqori darajada rivojlangan an‘anaviy tarixiy–madaniy aloqalarga ham bog‘liq edi. Baqtriya hududidan topilgan yuqori sifatli oltin, kumush va bronza buyumlari tashqi savdo va o‘zaro aloqalarning rivojlanganligidan dalolat beradi. Qadimgi Sharq davlat markazlari bilan madaniy munosabatlar muammosi dolzarb mavzu bo‘lib, arxeologiya ma‘lumotlar o‘zaro aloqalardagi mavjud texnologiya va iqtisodiy ta‘sirni ko‘rsatadi.

Ilk davlatlarning hududiy asosini bir–biriga yaqin joylashgan qo‘shni dehqonchilik tumanlari tashkil etgan. Xo‘jalik yuritish maqsadida o‘zlashtirilgan hududlarda aholi zich joylashgan bo‘lib, ular qadimgi dehqonchilik tuman–vohalari deb atalgan. Ularning har birida hosildor yerlar va sug‘orish tizimidan tashqari uy– qo‘rg‘onlar va manzilgothlar, ekin ekilmagan yerlar va yaylovlar mavjud bo‘lgan. Qadimgi dehqon–chilik tumanlarining tuzilishi tabiiy–geografik,

²⁰ Сагдуллаев А.С. Қадимги Ўрта Осиё тарихи.–Ташкент: Университет, 2004. 109-б.

ijtimoiy–iqtisodiy va madaniy muhit bilan bog‘liq edi. Bir necha tumanlar viloyatni tashkil etgan.

Yuqorida ko‘rsatilgan omillar bilan bog‘liq holda boshqaruvning hududiy funksiyalari ham vujudga kelgan. Ushbu funksiyalar tuman, viloyat hududlarida joylashgan qishloq jamoalari, tuman aholisi (bir necha qishloq jamoalari) va viloyat (bir necha tuman) aholisining munosabatlarini nazorat qilish va boshqarib turish zaruriyatidan kelib chiqqan.

Shu tariqa ilk davlatchilikka o‘tish jarayoni boshlangan. Ikkinchi bosqich jamoaning o‘zini–o‘zi boshqaruv muassasalarining yo‘lboshchi hokimiyatiga to‘la bo‘ysundirilishi bilan bog‘liq bo‘lib, ushbu jarayonda jamoa a‘zolari o‘rtasidagi ichki va tashqi aloqalarning huquqiy tartibi yanada takomillashib boradi. Bu holat esa davlat tizimidagi turli vazifalarning huquqiy tartibga solinishi va hokimiyatning huquqiy jihatdan rasmiylashtirilishiga olib keladi.

Yuqoridagilardan xulosa qilib aytish mumkinki, Qadimgi Sharqning ilk davlatlari tarixi dastlab jamiyatning qullar va quldorlarga bo‘linishidan boshlanmagan ekan. Ushbu jarayonning muhim omillaridan biri mulkiy tabaqalanish bo‘lmasdan, sinfiy qarama–qarshilikka aloqasi bo‘lmagan jamiyatning ijtimoiy–amaliy vazifalar jihatidan bo‘linishidir. Bu hol, eng avvalo, ijtimoiy–iqtisodiy, harbiy va diniy omillarga bog‘liq bo‘lgan. Davlatchilikning asoslari, siyosiy institutlar shakllangandan keyingi chuqur ijtimoiy tabaqalanish jarayonining boshlanishi bilan izohlanadi²¹.

Ilk davlatlarning ishlab chiqarish faoliyatida dastlab ozod jamoa a‘zolarining mehnati muhim o‘rin tutadi. Aholi sonining o‘sishi hamda yangi aholi joylasha oladigan hududlarga, bo‘z yerlar va chorva uchun yaylov, ma‘danlarga boy manbalarga ega bo‘lish ehtiyoji katta yo kichik urushlarga sabab bo‘lgan. Doimiy harbiy to‘qnashuvlar sharoitida ba‘zi bir davlatlar tor–mor etilib, ba‘zi birlari esa kuchayib borgan. Sanoqsiz asirlar va xonavayron bo‘lgan jamoa a‘zolari qullikka mahkum bo‘lganlar. Ularning mehnatidan ishlab chiqarish maqsadlarida keng foydalanilgan. Shu tarzda tarixda Qadimgi Misr, Ossuriyadek o‘rtamiyona

²¹ Сагдуллаев А.С. Қадимги Ўрта Осиё тарихи.–Ташкент: Университет, 2004. 109-б.

hududga ega davlatlardan (o'rta podsholiklar) keyinchalik yirik, dunyoviy miqyosdagi ahamoniylar saltanatidek davlatlar vujudga kelgan.

Arxeologik va yozma manbalarni o'rganish shuni ko'rsatadiki, ilk temir davri Baqtriya va So'g'd jamoalaridagi asosiy ishlab chiqaruvchi kuchlarni bir necha kichik oilalardan iborat uy jamoalari (katta oila vakillari) tashkil etgan. Uy-qo'rg'onlar joylashuvining tashqi belgilariyoq, uy-jamoalari aftidan ancha yirik hududiy qo'shni jamoalarni tashkil qilganidan dalolat beradi. Boshqaruv tartibida katta oilalar (uy jamoasi) boshliqlari yoki uy egalari, shuningdek, alohida qishloq qo'rg'onlarini boshqaruvchi jamoalar katta ahamiyatga ega bo'lgan.

Alohida uylar o'rtasidagi qarindoshchilik munosabatlari kabi belgilar aftidan, ikkinchi darajali bo'lib borgan. Bu shunda ko'rinadiki, har bir katta oila mumkin bo'lgan qarindoshchilik aloqalariga qaramasdan, alohida xususiy mulkka, o'z uy-joyiga, ishlab chiqarish qurollariga, shuningdek, qishloq xo'jalik maxsulotlari va chorvalariga ega bo'lishgan, bir so'z bilan aytganda, ular o'zini iqtisodiy jihatdan ta'minlay oladigan xo'jalikni aks ettirganlar. Katta oilali jamoalar shakli jamoadagi ishlab chiqarish va xo'jalik harakertiga bog'liq bo'lib, ular jamoatning iqtisodiy jihatdan mustahkamlanishiga olib keldi.

Uy-qo'rg'on egalarning huquqlari ancha yuqori bo'lib, ular oila va jamoadagi ish yurituvchilar sifatida an'anaviy qishloq xo'jalik shakllarini rivojlantirish, oziq-ovqat mahsulotlarini ko'paytirish maqsadida turli munosabatlarni boshqarib turgan. Bu ijtimoiy tuzumda ayrim guruhlar dehqonchilik xujaligi bilan mashg'ul bo'lgan. Shuningdek, tuzumda uy chorvachiligi, ixtisoslashgan hunarmandchilik, qurilish ishlari bilan shug'ullanuvchilar, umuman, ishlab chiqaruvchilar bor edi. Undan tashqari, ishlab chiqarish jarayonida band bo'lmagan yoki xo'jalik ishlari bilan kamdan-kam shug'ullanadigan shaxslar ham mavjud bo'lib, bu toifa kishilariga - uy-qo'rg'on egalari, jamoa oqsokollari, diniy arboblari, tuman va viloyat hokimlari kirgan. Ularning barchasi jamiyat hayoti va ishlab chiqarish tartibida tutgan o'рни bilan boshqalardan farq qilgan²².

²² Сагдуллаев А.С. Усадьбы древней Бактрии. –Ташкент: Фан, 1987. –139 с.

O‘zbekistonda ilk davlatlar dehqonchilikdan iqtisodiy ixtisoslashgan hunarmandchilikning ajralib chiqishi tufayli shakllangan shahar markazlari asosida paydo bo‘lgan. Shahar markazlarining ahamiyati, ayniqsa harbiy to‘qnashuvlar paytida yanada oshib, ulardan tuman aholisi uchun boshpana, ijtimoiy mulkning asosini tashkil etuvchi chorva podalari uchun pana joy sifatida foydalanilgan.

Tarixiy ma’lumotlarga ko‘ra, ilk temir davrida O‘zbekiston janubidagi jamoalarda “uy egasi”, “qishloq oqsoqoli”, “oqsokollar kengashi”, “tuman hokimi” kabi mansablar mavjud edi. Ijtimoiy tuzumning bu pog‘onasi ilk davlatchilikning yuqori darajasi bo‘lib, u jamoalarning ijtimoiy hayotida o‘z obro‘– e’tibori va ahamitini saqlab qoldi. Jamoa uchun tashkiliy boshqaruv keng qo‘lamdagi qurilish, sug‘orish va dehqonchilik ishlarini tashkil etish paytida zarur edi. Yo‘lboshchi hokimlarning boshqalardan ajralib turishiga qadimgi shaharlarning ichki qal’asida ularning alohida joylashgan saroy qo‘rg‘onlari mavjudligi ham guvohlik beradi. Bu hokimiyat jamoaning ichki va tashqi munosabatlarini boshqarib turgan.

O‘zbekiston hududida ilk davlatchilik tizimiga o‘tish bronza davrida boshlanadi. Surxondaryodagi O‘lonbuloqsoy – Sherobod qadimiy ziroatchilik vohasi yodgorliklarning o‘rganilishi (Sopolli, Jarqo‘ton) dehqonchilik, me’morchilik va hunarmandchilikning yuksak taraqqiy darajasini ochib berdi. Jarqo‘tonda alohida joylashgan ibodatxona Qadimgi Sharqdagi sajdagohlar singari, e’tiqodga oid vazifasidan tashqari, ibodat–xo‘jalik majmuasi mohiyatiga ega bo‘lgan. Bronza davrida ibodat merosimlarini tashkillashtiruvchi va ijro etuvchi mahsus ijtimoiy guruhlar – koinlar paydo bo‘ladi.

Mil.avv. IX–VIII asrlarda dasht chorvador qabilalari ko‘chib yuradigan chorvachilik shakliga o‘tadilar. Ko‘chmanchilar qurol–yarog‘ni rivojlantirish, o‘q otish va suvoriy jang qilish sohasida katta yutuqlarga erishib, o‘troq dehqonchilik aholi uchun juda xavfli kuchga aylanadilar. Bu davrda suvoriy–jangchi va harbiy yo‘lboshlovchilarning mavqei oshadi. Shu tariqa “harbiy demokratiya” tamoyillariga asoslangan qo‘chmanchi qabilalarning uyushmalari vujudga keladi. Bunga o‘xshash uyushmaning markazi Quyi va O‘rta Sirdaryo havzasi dashtlarida

joylashgan. Mil.avv.VII–VI asrlarda Sharqiy Kaspiy bo‘yi, Janubiy va Sharqiy Orolbo‘yi oralig‘i hududlarida joylashgan sak–massaget qabilalarning harbiy uyushmasi paydo bo‘ladi.

Mil.avv. VII–VI asr o‘rtalarida dehqonchilik voha–tumanlari asosida davlatchilik Baqtriya, Sug‘d, Xorazm va Farg‘ona vodiysida rivojlanadi. Mil.avv. IX–VII asrlar tarixiga oid “Avesto”da yo‘lboshchilar va hukmdorlarning unvonlari belgilab berilgan – “kavi” (hukmdor, podsho), “sastar” (harbiy yo‘lboshchi), “zantupati” (qabila yo‘lboshchisi). Baqtriya va So‘g‘d davlatchilik shakli “daxiyusasti” (barcha viloyatlar hududiy birlashuvi)ga ancha yaqin bo‘lgan²³.

O‘zbekistonda eng qadimgi davlatlarning shakllanish jarayoni dexqon–chorvachilik iqtisodiyoti, ixtisoslashgan hunarmandchilik va shahar markazlarining paydo bo‘lishi bilan uzviy bog‘liqdir.

²³ Сагдуллаев А.С. Усадьбы древней Бактрии. –Ташкент: Фан, 1987. –113 с.

§ I.2. Davlatchilining paydo bo'lishiga olib keluvchi tarixiy omillar.

Qadimgi Sharqdagi ilk davlatlarning paydo bo'lishi va rivojlanishi ko'pgina umumiy jihatlarga ega ekanligini ta'kidlash joizdir. Aynan mana shuning uchun ham O'rta Osiyoda ilk davlatlarning paydo bo'lishi Qadimgi Sharq davlatchiligi tarixi bilan uzviy bog'liqdir.

Bronza davridayoq sun'iy sug'orishga asoslangan dexqonchilik va chorvachilik O'rta Osiyo xo'jaligining asosini tashkil etgan. Sug'orma dexqonchilikning yuqori unumdor shakllari jamiyatda hal qiluvchi o'zgarishlarga olib keldi. Xususan, dexqonchilik va chorvachilik rivoji natijasida qo'shimcha mahsulot va hususiy mulk ko'rinishlari paydo bo'ldi.

O'rta Osiyoda davlat uyushmalari sun'iy sug'orish birmuncha qulay bo'lgan Amudaryo (yuqori, o'rta, quyi) oqimlari bo'ylarida, Murg'ob vohasida, Zarafshon va Qashqadaryo vohalarida shakllanib rivojlanadi. Bunday holatni dunyo tarixidagi dastlabki davlatlar – Misr (Nil) va Mesopotamiya (Dajla va Frot) misolida ham kuzatishimiz mumkin.

Dastlabki shahar markazlarining paydo bo'lish muammolari davlatchilik paydo bo'lishi masalalari bilan uzviy bog'liq mavzu hisoblanadi. Ilk yozma manbalar O'rta Osiyo hududlarida davlatlar vujudga kelishi haqida nisbatan aniq ma'lumotlar bermaydi. Bu o'rinda arxeologik ma'lumotlarning ahamiyati beqiyosdir.

Jamiyat hayotida metallning keng yoyilishi – dastlabki shaharlar va davlatchilikning asosiy omillaridan biri hisoblanadi. Hozirgi kunga kelib ko'plab bronza va ilk temir davri yodgorliklaridan (Sopoli, Jarqo'ton, Qiziltepa, Ko'zaliqir, Afrosiyob, Daratepa, Chust, Dalvarzin va boshq.) ishlab chiqaruvchi xo'jalik bilan bevosita bog'liq bo'lgan temir qurollar topib o'rganilgan. Mehnat qurollarining metallan ishlanishi mehnat unumdorligining yanada oshishiga keng imkoniyatlar yaratdi.

Davlatchilining paydo bo'lishi va rivojlanishiga quyidagi omillar sabab bo'lgan:

- Dehqonchilik va irrigatsiyaning rivojlanishi:

O'troq turmush tarziga o'tish va qishloq xo'jaligini rivojlantirish yaxshi muvofiqlashtirilgan mehnat va odamlarning sa'y-harakatlarini muvofiqlashtirishni talab qildi. Bu resurslarni taqsimlash, ishni tashkil qilish va nizolarni hal qila oladigan boshqaruv tizimini yaratishni rag'batlantirdi.

Qurg'oqchil iqlim sharoitida dehqonchilik uchun zarur bo'lgan sug'orishning rivojlanishi ham markazlashtirilgan nazoratni talab qildi. Sug'orish tizimlarini qurish va ularga texnik xizmat ko'rsatish faqat yirik davlat idoralari tomonidan uddalanishi mumkin bo'lgan murakkab vazifa edi.

- Savdo va hunarmandchilikning rivojlanishi:

Savdo va hunarmandchilikning rivojlanishi boylikning ko'payishiga va mulkiy tengsizlikning paydo bo'lishiga olib keldi. Bu, o'z navbatida, mulk huquqini himoya qiladigan va jamiyatda tartibni ta'minlaydigan boshqaruv tizimini yaratishni taqozo etdi. Buyuk ipak yo'li kabi O'zbekiston hududidan o'tgan savdo yo'llari shaharlar va hunarmandchilik markazlarining o'sishiga turtki bo'ldi. Bu shaharlar himoya va boshqaruvga muhtoj edi, bu ham davlat tuzilmalarining paydo bo'lishiga yordam berdi.

- Tashqi tahdid:

O'zbekiston hududida yashovchi xalqlar ko'pincha ko'chmanchi qabilalar hujumiga uchragan. Bu mudofaani tashkil qilish uchun kuchli armiya va markazlashtirilgan nazoratni yaratishni talab qildi. Tashqi tahdidga qarshi turish uchun turli qabila va urug'larning sa'y-harakatlarini yagona rahbarlik ostida birlashtirish zarur edi.

- Ijtimoiy tabaqalanish:

Jamiyat taraqqiyoti sari mulkiy tengsizlik kuchaydi. Boylik va hokimiyatga ega bo'lgan elita paydo bo'ldi. Bu elita o'z manfaatlarini himoya qiladigan va ijtimoiy tartibni saqlay oladigan boshqaruv tizimiga muhtoj edi. Mehnat taqsimoti va ixtisoslashuv o'z manfaatlariga ega bo'lgan turli ijtimoiy guruhlarining paydo bo'lishiga olib keldi. Bu esa ushbu guruhlar o'rtasidagi munosabatlarni tartibga soluvchi boshqaruv tizimini yaratishni taqozo etdi.

- Diniy omillar:

Davlat boshqaruvining rivojlanishida zardushtiylik va islom kabi dinlarning tarqalishi ham muhim rol o'ynadi. Din peshvolari ko'pincha boshliqlar va hukmdorlar bo'lib, o'zlarining ma'naviy vakolatlaridan o'z kuchlarini mustahkamlash uchun foydalanadilar. Diniy me'yorlar va qadriyatlar boshqaruv tizimining tuzilishi va funktsiyalariga ta'sir qilishi mumkin.

II.BOB. QADIMGI O‘ZBEK DAVLATCHILIGI SHAKILLANISHINING O‘ZIGA XOS YO‘NALISHLARI

§ II.1.Qadimgi o‘zbek davlatchiligining shakllanishi bosqichlari.

O‘zbekistonda ilk davlatlar dehqonchilikdan iqtisodiy ixtisoslashgan hunarmandchilikning ajralib chiqishi tufayli shakllangan shahar markazlari asosida paydo bo‘lgan. Shahar markazlarining ahamiyati, ayniqsa harbiy to‘qnashuvlar paytida yanada oshib, ulardan tuman aholisi uchun boshpana, ijtimoiy mulkning asosini tashkil etuvchi chorva podalari uchun pana joy sifatida foydalanilgan.

Tarixiy ma’lumotlarga ko‘ra, ilk temir davrida O‘zbekiston janubidagi jamoalarda “uy egasi”, “qishloq oqsoqoli”, “oqsokollar kengashi”, “tuman hokimi” kabi mansablar mavjud edi. Ijtimoiy tuzumning bu pog‘onasi ilk davlatchilikning yuqori darajasi bo‘lib, u jamoalarning ijtimoiy hayotida o‘z obro‘– e’tibori va ahamitini saqlab qoldi. Jamoa uchun tashkiliy boshqaruv keng qo‘lamdagi qurilish, sug‘orish va dehqonchilik ishlarini tashkil etish paytida zarur edi. Yo‘lboshchi hokimlarning boshqalardan ajralib turishiga qadimgi shaharlarning ichki qal’asida ularning alohida joylashgan saroy qo‘rg‘onlari mavjudligi ham guvohlik beradi. Bu hokimiyat jamoaning ichki va tashqi munosabatlarini boshqarib turgan.

O‘zbekiston hududida ilk davlatchilik tizimiga o‘tish bronza davrida boshlanadi. Surxondaryodagi O‘lonbuloqsoy – Sherobod qadimiy ziroatchilik vohasi yodgorliklarning o‘rganilishi (Sopolli, Jarqo‘ton) dehqonchilik, me’morchilik va hunarmandchilikning yuksak taraqqiy darajasini ochib berdi. Jarqo‘tonda alohida joylashgan ibodatxona Qadimgi Sharqdagi sajdagohlar singari, e’tiqodga oid vazifasidan tashqari, ibodat–xo‘jalik majmuasi mohiyatiga ega bo‘lgan. Bronza davrida ibodat merosimlarini tashkillashtiruvchi va ijro etuvchi mahsus ijtimoiy guruhlar – koinlar paydo bo‘ladi.

Mil.avv. IX–VIII asrlarda dasht chorvador qabilalari ko‘chib yuradigan chorvachilik shakliga o‘tadilar. Ko‘chmanchilar qurol–yarog‘ni rivojlantirish, o‘q otish va suvoriy jang qilish sohasida katta yutuqlarga erishib, o‘troq dehqonchilik aholi uchun juda xavfli kuchga aylanadilar. Bu davrda suvoriy–jangchi va harbiy

yoʻlboshlovchilarning mavqei oshadi. Shu tariqa “harbiy demokratiya” tamoyillariga asoslangan qoʻchmanchi qabilalarning uyushmalari vujudga keladi. Bunga oʻxshash uyushmaning markazi Quyi va Oʻrta Sirdaryo havzasi dashtlarida joylashgan. Mil.avv.VII–VI asrlarda Sharqiy Kaspiy boʻyi, Janubiy va Sharqiy Orolboʻyi oraligʻi hududlarida joylashgan sak–massaget qabilalarning harbiy uyushmasi paydo boʻladi.

Mil.avv. VII–VI asr oʻrtalarida dehqonchilik voha–tumanlari asosida davlatchilik Baqtriya, Sugʻd, Xorazm va Fargʻona vodiysida rivojlanadi. Mil.avv. IX–VII asrlar tarixiga oid “Avesto”da yoʻlboshchilar va hukmdorlarning unvonlari belgilab berilgan – “kavi” (hukmdor, podsho), “sastar” (harbiy yoʻlboshchi), “zantupati” (qabila yoʻlboshchisi). Baqtriya va Soʻgʻd davlatchilik shakli “daxiyusasti” (barcha viloyatlar hududiy bosqichi).

Ilk davlatlarning tashkil topish davri (miloddan avvalgi III asr - milodiy III asrlar):

Davlat hokimiyatini mustahkamlash: boshqaruv, soliq, adolat, armiya tizimini shakllantirish. Shaharlarning rivojlanishi: Savdo, hunarmandchilik va madaniyat markazlari boʻlgan Buxoro, Samarqand, Termiz kabi shaharlarning gullab-yashnashi. Zardushtiylikning tarqalishi: Zardushtiylik maʼnaviy hayot va madaniyatga taʼsir koʻrsatuvchi hukmron dinga aylanadi.

Turk xoqonliklari davri (VI-VIII asrlar):

Turk xoqonligining tashkil topishi: Turkiy qabilalarning qudratli imperiyani yaratgan xoqon qoʻl ostida birlashishi.

Koʻchmanchi madaniyatning tarqalishi: Turklarning koʻchmanchi anʼanalari va urf-odatlarini oʻtroq xalqlar madaniyati va hayotiga taʼsir koʻrsatadi.

Xalqaro savdoning rivojlanishi: Buyuk Ipak yoʻli Oʻzbekiston hududidan oʻtib, Sharq va Gʻarb bilan savdo va madaniy aloqalarni rivojlantirishni ragʻbatlantiradi.

Islom dinini qabul qilish: turkiy qabilalar orasida islom dinining tarqalishi, mintaqaning islomlashuvining boshlanishi.

Oʻrta asr davlatlarining tashkil topish davri (IX-XV asrlar):

Somoniylar davlatining tashkil topishi: O'rta Osiyo yerlarining Somoniylar sulolasi hukmronligi ostida birlashishi, fan, madaniyat va san'atning gullab-yashnashi.

Islom dinining davlat dini sifatida qabul qilinishi: Islom jamiyat hayotining barcha sohalariga ta'sir ko'rsatuvchi hukmron dinga aylanadi.

Shahar madaniyatining rivojlanishi: Buxoro, Samarqand, Xorazm kabi fan, madaniyat va hunarmandchilik markazlari bo'lgan shaharlarning gullab-yashnashi.

Yangi adabiy tillarning paydo bo'lishi: turkiy adabiy tillar, masalan, chag'atoy, eski o'zbek tillarining rivojlanishi.

Markazlashgan davlatlarning tashkil topish davri (XVI-XX asrlar):

Buxoro amirligining tashkil topishi: Amirlar tasarrufidagi yerlarning birlashishi, markazlashgan davlatning vujudga kelishi.

Karvon savdosining yuksalishi: Buxoro Buyuk Ipak yo'lidagi eng muhim savdo markazlaridan biriga aylanadi.

Hunarmandchilik va manufakturaning rivojlanishi: Hunarmand va savdogarlar mavqeini mustahkamlash, tovar-pul munosabatlarining kuchayishi.

Madaniy an'analarni saqlash va rivojlantirish: fan, adabiyot, san'at, me'morchilik, amaliy hunarmandchilikning gullab-yashnashi.

Ta'kidlash joizki, bu qadimiy o'zbek davlatchiligi shakllanishidagi asosiy yo'nalishlarning qisqacha ko'rinishi xolos.

§II.2. Qadimgi Baqtriyadavlati.

Miloddan avvalgi II ming yillikning birinchi yarmida Murg‘ob vohasini qadimgi dehqonchilik jamoalari tomonidan o‘zlashtirilishi va ushbu makonda Kauchindepa, Kelelidepa, Gonurdepa kabi qator aholi punktlarini paydo bo‘lishi Avestoda “Mauri” deb nomi zikr etilgan viloyatni tarkib topishiga olib keladi. Uning o‘troq aholisi esa margush nomi bilan tarixda o‘z o‘rnini topadi. Ayni zamonda xuddi shunday tarixiy jarayon Murg‘obdan shimoliy-sharqda, shimoliy Afg‘onistonning Axcha daryo quyi havzalarida (Dashli vohasi) va Janubiy O‘zbekistonning Ulanbuloqsoy va Bo‘stonsoy havzalarida ham yuz beradi. Bu zaminda Sopollitepa va Jarqo‘ton kabi o‘troq aholi punktlari qad ko‘taradi. Avestoda “muqaddas Baxdi” deb nomi zikr etilgan ushbu madaniy-xo‘jalik viloyati – Qadimgi Baqtriya, uning o‘troq aholisi esa bohtariylar edi. Shunday qilib, bronza davrida O‘rta Osiyoning janubiy hududlarida Baqtriya va Marg‘iyona qadimgi Sharq sivilizatsiyasining ikkita mahalliy o‘chog‘i, yangi madaniy-xo‘jalik markazlari tashkil topib, dehqonchilik mintaqalarining hududiy chegarasi kengayadi, margush va bohtar elatlari shakllana boshlaydi.

O‘zbek davlatchiligining ilk bosqichlarida dastlab, jamoaning boshqaruv tizimida diniy – ilohiy qudrat katta nufuzga ega bo‘lganligi tufayli, mahkamachilik ishlari shahar bosh ibodatxonasi qoshida mujassamlashgan. Shuning uchun ham ilk shaharlarning bosh ibodatxonalari monumental xarakterga ega bo‘lib, shaharning Bosh otashgohi ibodatxona majmuaini tashkil etgan. Shu bilan birga jamiyatni boshqarish ham ibodatxona bilan bog‘liq bo‘lgan. Bosh otashkada kohinlarning ilk davlatchilik jarayonlarida faol qatnashib, diniy-dunyoviy hokimiyat egasi bo‘lganligiga ishora qiladi. Chunki, muqaddas kulxonada bosh otashkada kullarining saqlanishi, ibodatxona sajdagohining bosh ibodat markazi ekanligi, diniy marosim, kult bilan bog‘liq udumlarning ibodatxona boshqaruvida o‘tkazilishi, muqaddas ichimlik ibodatxona qoshidagi “seh”larda, “oq xona”larda tayyorlanib, shaxsan mubodlar nazoratida bo‘lganligi buni isbotlaydi²⁴.

²⁴ Эсанов М. “Авесто” жамиятининг археологик материалларда ... т.ф.н. дис... – Т.: 2007. 71-б.

Shulardan kelib chiqib, xulosa qilish mumkinki, arxeologik yodgorliklar va ularning tarixiy tahliliga ko'ra, Shimoliy Baqtriya jumladan, o'zbek davlatchiligining tarixiy ildizlari bronza davriga borib taqaladi. Aynan shu davrdan boshlab, mulkchilikdan yerga va chorvaga egalik qilishlikning xususiy shakli paydo bo'ladi. Yerga egalik qilish, juft oilalarning paydo bo'lishi va ularni katta patriarxal oila darajasiga o'sib chiqishidan boshlanadi. Davlatchilikning dastlabki, ilk kurtaklari patriarxal oilalardan boshlanib, ularni mujassamlashtirgan qishloq jamoalari – vislar darajasidagi ko'rinishi ilk davlatchilikning tarixiy ildizlarini tashkil etadi. Vislar ilk davlatchilik kurtagi hisoblansa, "Avesto" jamiyatining zantu bosqichida vislardan tashkil topgan ilk shahar shahar – davlatchiligining asosini tashkil etgan. Shahar – davlat amalda bir necha mikrovoha doirasidagi vislarni diniy va siyosiy jihatdan birlashtirgan "voha davlatchiligi" ning bosh shahri, siyosiy va diniy qarorgohidir. Shunday ekan, Jarqo'ton nafaqat shahar – davlat, balki Surxon-Sherobod vohasi doirasidagi voha ilk davlatchiligining diniy boshqaruv markazi hamdir.

Ilk temir davriga kelib, yani eramizgacha bo'lgan X-VII asrlarda hududiy davlatlarning shakllanish jarayoni kechgan. Bu davrda shaharlar hududiy davlatlarning markazi sifatida faoliyat etishi kuzatiladi. Qadimgi Baqtriyaning shimoliy qismi bo'lgan Surxondaryo viloyatida ilk temir davrida uchta hududiy davlatning shakllanganligini kuzatishimiz mumkin. Bular Sherobod, Boysun, Surxon dehqonchilik o'lkalarida joylashgan «nom» tipidagi hududiy davlatlar bo'lib, siyosiy markazlari Jondavlattepa, Xayitobodtepa va Qiziltepa shaharlari bo'lgan.

Huddi shunday «nom» tipidagi hududiy davlatlarning Qadimgi So'g'd va Qadimgi Farg'ona vodiysida ham tarkib topganligi kuzatilmoqda. Ularning markazlari Daratepa (Kitob), Ko'ktepa (Chelak), Afrosiyob (Samarqand), Farg'ona vodiysidagi Dalvarzin kabi shahar tipidagi yodgorliklar bo'lgan.

Ilk temir davrida shakllangan hududiy davlatlar bir yoki bir nechta daryo o'zanlari hududlarini birlashtirib, markaziy shahri va shu markaz atrofida jamlangan qishloq va qo'rg'onlar majmuasidan iborat bo'lgan. Shaharlarining

umumiy maydoni 8 gektardan 25 gektargacha boradi. Ular ikki qism, ark va shahristondan iborat bo'lgan. Arxeologik kuzatuvlarga qaraganda shu davr shaharlari tashqi ko'rinishiga ko'ra bir-biriga juda o'xshash bo'lgan. Ark va shahriston qalin mudofaa devorlari bilan o'rab olingan bo'lib, devorlarning qalinligi 5-6 metrni tashkil etadi. Devor ustida jangchilar yuradigan maxsus yo'lak bo'lgan. Shahar devorlariga o'q otish uchun harbiy minora - mudofaa burji qurilgan. Mudofaa devori va burjlarning har ikki metrda shinaklar o'rnatilgan. Ilk temir davri shaharlarining xarakterli tomonlaridan biri shahar atrofida handaklar qazilgan, harbiy holat vaqtida handaklar suvga to'ldirilgan va shahar mudofaasi yanada mustahkamlangan.

Arkda shahar hokimining saroyi joylashgan bo'lib, eng baland va hashamatli qilib qurilgan. Shahristonda ibodatxonalardan tashqari, hunarmand va savdogarlarning uylari, savdo rastalari, harbiy kazarmalar joylashgan bo'lgan. Shahristonda tosh to'shalgan yo'laklar bo'lib, yo'laklar bir arava sig'adigan kenglikda bo'lgan.

Dehqonlar shahar atrofidagi qishloq va qo'rg'onlarda yashagan. Ilk temir davriga oid qishloq Surxondaryo viloyati Sho'rchi tumanidagi Qizilcha qo'rg'oni misolida o'rganilgan. U to'g'ri to'rtburchak shaklli bo'lib, devorlari paxsa va xom g'ishtdan terilgan. Xonalarning poli va devorlari loy shuvoq bilan shuvalgan. Uyning old tomoni keng hovlidan iboratligi kuzatilgan. Bu yerdan topilgan topilmalar qishloq hayot tarzini to'liq xarakterlaydi. Omoch, o'roq singari topilmalar, qishloq ahlining dehqonchilik bilan shug'ullanganligini ko'rsatadi²⁵.

XX asrning 70–80 yillarida olib borilgan arxeologik tadqiqot ishlari natijasida shimoliy Baqtriya hududi madaniy–xo'jalik hududlarga ajratish orqali tahlil qilingan. Ilk temir davri 5 ta madaniy–xo'jalik rayonlarga ajratilib o'rganilgan: Ulanbuloq, Sherobod, Bandixon, Mirshodi, Vaxshuvar²⁶ va 4 ta madaniy–xo'jalik

²⁵ Сагдуллаев А.С. Усадьбы древней Бактрии. –С.12.

²⁶ Сагдуллаев А.С. Усадьбы древней Бактрии. –С.51; Сагдуллаев А.С. Основные черты и генезис культуры доантичной Бактрии. //Античные и раннесредневековые древности Южного Узбекистана. –Ташкент:Фан, 1989. –С. 32-37.

hudud keng o'zlashtirilganligi aniqlagan. A.S.Sagdullaev bu davrni Qizil II davri bilan bog'lab, 14 ta yodgorlikni ro'yhatga olgan²⁷.

Mil.av. VII asrga kelib hududiy davlatlar asosida Vatanimiz janubida Qadimgi Baqtriya, VI asrda esa quyi Amudaryo va Orol bo'ylarida Qadimgi Xorazm shohliklari, O'rta Osiyo va Qozog'istonning tog'lari, dashtlari, cho'llarida ko'chmanchi Sak qabilalarining konfederatsiyasi bo'lganligi kuzatiladi. Davlatlarning hududiy kengayishi natijasida, shunga monand shaharlar ham rivojlanib borgan va joylashgan geografik o'rni va egallagan siyosiy mavqeiga qarab katta va kichik shaharlar toifasiga bo'linib borgan.

Markazlashgan davlatlar hududi juda keng bo'lib, bir va bir necha keng o'lkalarni o'z tarkibiga olgan. Bu davrga kelib, shaharlar egallagan siyosiy mavqeiga qarab toifalarga ajrala boshlaydi. Qadimgi Baqtriya shohligi hududlarida Bolo Hisor, Oltindilyor (Shimoliy Afg'oniston), Qiziltepa, Jondavlattepa, Xaitobodtepa (Surxondaryo), Baytudasht (Janubiy Tojikiston) kabi shahar tipidagi arxeologik yodgorliklarning mavjudligi aniqlangan. Bolo Hisor o'rnida qadimgi Baqtra shahri joylashgan. Bu shahar Gerodot va Kteseylarning ta'kidlashicha, Baqtriyaning markazi bo'lgan.

Jarqo'ton yodgorligini va yodgorlikdan topilgan moddiy madaniyat ashyolarini Qadimgi Sharq shahar-davlatlari bilan taqqoslash natijasida er.av. II ming yillikda, yani so'nggi bronza davrida O'zbekiston hududada ilk shahar madaniyati shakllangan. Bu yerdan hukmdorlar saroyi, markazlashgan din mavjudligini isbotlovchi olov ibodatxona va boshqa ilk shahar madaniyatiga xos bo'lgan ashyoviy manbalar topildi. Ular Qadimgi Sharq shaharlari harobalaridan topilgan manbalari bilan solishtirilishi natijasida, Jarqo'ton egallagan maydoni, yodgorlikning ichki tizimi, yuqori rivojlangan hunarmandchiligi va boshqa sifat belgilariga ko'ra u shahar ko'rinishiga ega bo'lgan yodgorlik ekanligi isbotlandi.

Shu tariqa O'zbekiston hududida miloddan avvalgi II ming yillikning ikkinchi yarmiga kelib ijtimoiy sharoit, iqtisodiy rivojlanish va geografik muhitdan kelib

²⁷ Сагдуллаев А.С. Усадьбы древней Бактрии. –С.12.

chiqib, kichik daryo havzasida, bir yahlit dehqonchilik vohasida, ilk shahar madaniyatiga asos solingan.

Jarqo‘ton yodgorligi O‘zbekiston hududida birinchi bor shakllangan tom ma‘nodagi qadimgi ilk shahar. Jarqo‘ton Qadimgi Sharq shaharlaridan tarkibiy jihatdan farq qilmaydi.

Ilk shaharlar va davlatchilikning paydo bo‘lishi va taraqqiyoti o‘zaro uzviy boqliq ekanligini arxeologik manbalar tasdiqlaydi. Yirik davlatlar, yani podshohlarning shakllanishi bilan shaharlar egallagan siyosiy va iqtisodiy mavqeiga qarab katta va kichik shaharlar toifalariga ajralib borgan.

Demak, yuqorida eslab o‘tilgan ilmiy ma‘lumotlar asosida aytish mumkinki, hozirgi oqsoch shaharlarimiz Vatanimiz hududida shaharlar taraqqiyotining uchinchi bosqichiga oid. Birinchi bosqich, so‘nggi bronza davrida shakllangan ilk shaharlar bo‘lib, Jarqo‘ton yodgorligi misolida o‘rganildi. Ikkinchi bosqich shaharlari hududiy davlatlarning markazi sifatida shakllangan shaharlar bo‘lib, Qiziltepa, Jondavlattepa, Ko‘ktepa shahar-yodgorliklari misolida o‘rganilmoqda.

Sherobod vohasidagi Ulanbuloqsoy o‘zanining boshlangich oqimlari Dobilsoy deb ataladi. Dobilsoyning o‘ng sohilida Dobilqo‘rg‘on yodgorligi joylashgan. Bu yodgorlikka ilk temir davrida asos solinganligi E.V. Rtveladze tomonidan 1974 yilda qayd etilgan¹. Dobilsoy yodgorligidan 10-12 km quyida Foz qishlog‘i joylashgan. Shu qishloq hududida 4 ta koriz uslubida qazilgan sun‘iy sug‘orish shahobchalari va uchta arxeologik yodgorlik joylashgan. Ularning eng qadimgisi Foztepa bo‘lib, ilk temir davriga oid. Shu yodgorlikdan ilk temir davriga oid sopollar majmualari va toshdan yasalgan keli topildi. Shu topilmalar asosida Foz qishlog‘ida joylashgan korizlarni ham ilk temir davri bilan davrlash mumkin.

Ahamoniylar davrida Baqtriyada toshdan tegirmon tosh, o‘g‘ir, qayroqlar, munchoqlar yasalgan. Bu borada Fozdan topilgan o‘g‘irga alohida to‘xtalib o‘tishni lozim ko‘rdik, negaki bu topilma O‘zbekiston hududida yozuvning paydo bo‘lishi xususida o‘ta yangi ma‘lumotlarni beradi.

Keli yumshoq tarkibli monolit toshdan yasalgan bo‘lib, balandligi 22 sm, eni 20 sm. Keli kosasining chuqurligi 12 sm. Idishning tashqi tarafida 13 ta piktografik belgili yozuvlar majmuasi joylashgan.

Yuqorida Sopolli madaniyati davrida piktografik belgi-yozuvlarning tarqalganligi xususida fikr yuritdik. Foz qishlog‘idan ushbu topilmaning topilishi Baqtriyada piktografik yozuvning rivojlanishi to‘g‘risida yangi ma‘lumotlar berdi. Agar bronza davrida, Sopollitepa va Jarqo‘ton yodgorliklarida piktografik yozuvlar oddiy va alohida bitilgan bo‘lsa, G‘ozdan topilgan o‘g‘ir sirtida 13 ta belgining yozuv sifatida birga ifodalanganligini kuzatamiz. Ular toshga o‘yib ishlangan, shakl jihatidan ham ancha rivojlangan – oddiy va murakkab shakllarda ifodalangan.

O‘zbekiston hududida ilk temir davrida hududiy davlatlar, hududiy davlatlar asosida esa podshohliklar shakllangan (Qadimgi Baqtriya, Qadimgi Xorazm, Qadimgi So‘g‘d va boshqalar). Davlatlarning paydo bo‘lishi, jamiyatni ongli boshqarish insonlarning oliy tafakkuri mahsulidir.

O‘rta Osiyo xalqlarining Ahamoniylar imperiyasi tarkibiga kirishi bilan insonlar o‘rtasida pul munosabatlari boshlanadi. Eng qadimgi tanga Doro I zarb qilgan oltin tanga bo‘lib, shu davrdan boshlab savdo munosabatlarida pul to‘lov vositasini bajargan. Tangalar oltin, kumush, mis va bronzadan yasalgan va ashyosiga qarab qiymati belgilangan.

Oromiy yozuvigi asoslangan, harfli yozuv o‘zlashtiriladi. Shu yozuv negizida Qadimgi Baqtriya, Qadimgi So‘g‘d, Qadimgi Xorazm va «Avesto» yozuviga asos solinadi. Ilk temir davrida din markazlashib, Zardushtiylik butun O‘rta Osiyo aholisining yagona diniga aylanib boradi. Zardushtiylik bizning bobolarimiz yaratgan va o‘z vaqtida jahon dini darajasiga ko‘tarilgan dinlarning biri. Payg‘ambar Zardusht nomi bilan bitilgan «Avesto» dunyo yuzini ko‘radi. Kezi kelganda shuni aytib o‘tish zarurki zardushtiylik dini ilk temir davrida yashagan bobolarimizning aql zakovati, tafakkuri mahsulidir.

Kuchuk I davri yodgorliklari kichik suv o‘zanlari (daryo) bo‘ylarida, daryolarning tog‘lardan past tekisliklarga oqib o‘tadigan hududlarida bunyod

etilgan (3-rasm). Bu davr yodgorliklarining eng xarakterli tomoni shundaki, ularning umumiy maydoni kichiklashib boradi. Shunday bo'lsa-da, O'rta Osiyo xalqlari tarixida ilk marotaba mudofaa devorlari bilan o'ralgan arklar paydo bo'lgan. Arklar balandligi to'rt metrgacha bo'lgan platformalar ustida bunyod etilgan.

Kuchuk I davriga oid ayrim yodgorliklarda uchta qurilish davri kuzatilgan bo'lsa (Kuchuktepa), ayrim yodgorliklarda faqat bir qurilish davri yoki xo'jalik o'ralarida shu davr ashyolari kuzatilgan (Jarqo'ton). Kuchuk I davri yodgorliklarida madaniy qatlamning qalinligi 1,2-3,6 metrni tashkil etadi²⁸.

Murg'ob vohasining yoz I davri yodgorliklari chop etilgan manbalar asosida A.S. Sagdullaev tomonidan quyidagi tiplarga bo'lib o'rganilgan: umumiy maydoni 7-16 gektar oralig'ida bo'lgan yirik arkli qishloqlar (Yazdepa, Arvalidepa); umumiy maydoni 1,5 - 9,5 gektar oralig'ida bo'lgan aylana va to'g'ri burchakli qishloqlar (Uchdepa 6; O'tliyatan); Umumiy maydoni 1-2 gektardan oshmaydigan tarqoq holda joylashgan, mudofaa devorlari bo'lmagan qishloqlar (Dashtli 6; Uchdepe 7; Chopli 2) va maydoni eng kichik, ya'ni 0,2-0,3 gektardan iborat (Uchdepa 2; Ayrak 2) uy-qo'rg'onlardan iborat²⁹. Murg'ob vohasi yodgorliklariga qiyoslanib, Baqtriyaning ham shu davr yodgorliklari tiplarga ajratilgan. Baqtriya hududida shu davrga oid yirik arkli yodgorliklar aniqlanmagan. Qolgan yodgorliklar esa quyidagi uchta tipga ajratilgan: doimiy faoliyat etgan qism va unga tutashtirib qurilgan ikkinchi qism (Bandixon I, Qiziltepa arki); tarqoq holdagi mudofaalanmagan qishloqlar (Bo'yirachi 2) va nihoyat Kuchuktepa misolidagi platforma ustiga qurilgan, mudofaalangan uy-qo'rg'onlar³⁰. Fikrimizcha, ushbu tipologiyada arkli yodgorliklarga yetarlicha e'tibor berilmagan. Shu davr yodgorliklarini rayonlashtirishda va tiplarga ajratganda shu yodgorliklar asos qilib olinishi kerak bo'ladi. Negaki, ushbu yodgorliklar shakllanib kelayotgan shaharlar bo'lib, ark atrofida joylashgan "shahriston" qismiga ham ega va bu yodgorliklar o'zlari joylashgan kichik iqtisodiy rayonning madaniy va iqtisodiy markazi

²⁸ Сагдуллаев А.С. Оседлые области на юге Средней Азии в эпоху раннего железа (генезис культуры и социально экономическая динамика). Автореф. дис. ... д.и.н. - М., 1989. - С. 8.

²⁹ Сагдуллаев А.С. Кўрсатилган асар. - С. 18.

³⁰ Сагдуллаев А.С. Кўрсатилган асар. - С. 18.

vazifalarini bajargan. Bundan tashqari E.V. Rtveladze Bandixon I yodgorligini shahar toifasiga kiritganligini ham e'tibordan chiqarmaslik kerak³¹.

Shimoliy Baqtriya hududida uchta sug'orilish rayonida kuchuk I davri yodgorliklari aniqlangan. Sherobod dehqonchilik o'lkasining Ulanbuloqsoy bo'yida Kuchuktepa, Bo'stonsoy o'zanida Jarqo'ton yodgorligi joylashgan³².

Boysun dehqonchilik o'lkasining Bandixonsoy etaklarida Bandixon I, Fozimulla yodgorliklari, Mirshodi (Tentaksoy) bo'ylarida Mirshodi yodgorligi va Qiziltepa yodgorliklari majmuasi joylashgan³³.

Har bir dehqonchilik o'lkada bittadan arkli yodgorlikning joylashganligi kuzatiladi. Sherobod dehqonchilik o'lkasida Kuchuktepa, Bandixon dehqonchilik o'lkasida Bandixon I, Mirshodi o'lkasida Qiziltepa yodgorliklarini shakllanib kelayotgan shaharlar toifasiga kiritish mumkin. Ular, eng asosiysi, arkli bo'lib, arklar yodgorlikning bir chekkasida bunyod etilgan. Arkka tutash hududda maydoni kichik bo'lsada "shahriston" joylashgan. Ushbu topografik jarayon shuni ko'rsatadiki, kuchuk I davrida jamoa aslzodalari yerlarni (sug'orilish rayonlarini) hududiy bo'lib olishga erishgan. Bu yerda kichik hududiy davlatlarning shakllanish jarayonini arxeologiya nuqtai nazaridan kuzatish mumkin. Yuqorida ta'kidlaganimizdek, O'rta Osiyo arxeologiyasida shu davrda ilk marotaba arkli yodgorliklar shakllangan. Ular har bir dehqonchilik o'lkasida bittadan joylashgan. Fikrimizcha, shu yodgorliklar muayyan hududda siyosiy, iqtisodiy va madaniy markaz vazifasini bajargan.

Kuchuk I davri yodgorliklari va ularning vohalar bo'ylab joylashishi³⁴

Dehqonchilik vohalari	Voha markazi	Voha hududi	O'lkadagi boshqa yodgorliklar
Sherobod	Kuchuktepa	Ulanbuloqsoy, Bo'stonsoy suv o'zanlari	Jarqo'ton
Bandixon	Bandixon	Bandixonsoy o'lkasi	Fozimulla

³¹ Ртвеладзе Э.В. К характеристике памятников Сурхандарьинской области ахеменидского времени// СА. - М., №2, 1975.

³² Шайдуллаев Ш.Б. Северная Бактрия в эпоху раннего железного века. Ташкент, 2000.

³³ Сагдуллаев А.С. Кўрсатилган асар. - С. 14.

³⁴ Шайдуллаев Ш. Б. Ўзбекистон хуудида давлатчиликнинг пайдо бўлиши ва ривожланиш босқичлари. – Б.70, 188, 192.

	I		
Mirshodi	Qiziltepa	Mirshodi o'lkasi	Qizilcha VI, Bo'yrahi 2, Nomsiztepa

Kuchuk I davrida voha markazini bajargan yodgorliklar keyingi tarixiy jarayonlarda, ya'ni qadimgi baqtriya madaniyati davrida o'z siyosiy mavqeini yo'qotib boradi. Negaki, ular joylashgan geografik o'rniga ko'ra noqulay, kichik suv o'zanlarida joylashgan. Qadimgi baqtriya madaniyati davrida katta daryolar bo'ylarida joylashgan yodgorliklar kuchayib, yangi siyosiy markazlarning paydo bo'lishini kuzatamiz. Sherobod dehqonchilik o'lkasida Sherobod daryosi bo'yida joylashgan Jondavlattepa, Surxondaryo bo'yida joylashgan Xaitobodtepa yodgorliklarining paydo bo'lishi jarayonini kuzatishimiz mumkin.

§ II.3. Qadimgi Xorazm davlati

Xorazm O'rta Osiyo hududidagi eng qadimiy davlatlardan biri bo'lib, aholisi o'troq va ko'chmanchi qabilalardan iborat bo'lgan. Uning hududi Amudaryoning quyi qismidan janubga tomon Murg'ob va Tajan daryolarining yuqori oqimlarigacha cho'zilgan.

U haqdagi ilk ma'lumotlar "Avesto", birinchi Doroning Behistun tosh bitiklari, qadimgi yunon mualliflari, arab geograflarining asarlarida uchraydi. "Avesto"ning "Yasht" qismida Xorazm "Ming irmoqli daryo", "Ko'llar va o'tloqdarga boy o'lka" sifatida madh etiladi.

Abu Rayhon Beruniy o'zining "Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar" asarida shunday yozadi: "Xorazmliklar Xorazmga odamlar joylasha boshlaganidan tarix olar edilar. Bu Iskandardan 980 yil ilgari bo'lgan edi. Undan keyin Siyovush ibn Kaykovusning Xorazmga kelishidan, Kayxusrav va uning naslining Xorazmga podshohlik qilishlaridan tarix oldilar. Shu vaqtda Kayxusrav Xorazmga ko'chib, turk podshohlari (ustidan) hukmronligini yurgizgan edi. Bu voqea Xorazmga odam joylashishidan 92 yil keyin bo'ldi". Demak, 3 ming yil oldin ham Xorazmda turkiy qabilalar yashagan va davlat tizimi bo'lgan. Miloddan avvalgi ming yillik boshlariga aloqador "Amirobod madaniyati", quyi Amudaryo havzasidagi sun'iy sug'orish inshootlari tizimi (Gerodot qadimda Oks (Amu) daryosi bo'ylab 360 dan ziyod sun'iy sug'orish inshootlari barpo etilganligini yozadi) hamda dastlabki shaharsozlik timsoli bo'lgan shahar-qal'alar - Qal'aliqir, Ko'zaliqir, Jonbosqal'a va boshqalar Xorazm vohasidagi qadimiy davlatchilik belgilaridir.

So'nggi yillarda olib borilgan tadqiqotlar «Katta Xorazm», «Qadimgi Xorazm» masalalariga birmuncha aniqliklar kiritdi. Arxeologik tadqiqotlar natijalariga ko'ra, Xorazm tuprog'ida mil. avv. VIII-VII asrlarga oid paxsa yoki xom g'isht turar joylar aniqlanmagan (turar joylar yarim yerto'lalardan iborat). Qadimgi Xorazm davlati mil. avv. VI asrda Amudaryoning o'rta oqimi qismidan Orolga yaqin bo'lgan yerlarda vujudga kelgan. Baqtriya va Xorazm davlatining hududiy chegaralari o'rta Amudaryo oqimidagi yerlar orqali o'tgan. Xorazmning yirik sug'orish inshootlari mil. avv. VI-V asrlarga oiddir. O'lkada bu davrlarga oid

ko'pgina shahar va qishloqlar xarobalari ochib o'rganilgan. Ulardagi topilmalar, manzilgohlar, xom g'isht va paxsadan qad ko'targan bo'lib, aholi dehqonchilik va chorvachilik bilan shug'ullangan. Shaharlarda hunarmandchilik rivojlangan.

Xorazm" kitobida antik Xorazm tarixini to'rt davrga bo'ladi:

1. Uy-joy devorlari bo'lgan shahriston madaniyati (miloddan avvalgi VI-IV asrlar)

2. Qanqa (Qang) madaniyati (miloddan avvalgi IV asr - milodiy I asr)

3. Kushonlar madaniyati (milodiy II – II asrlar)

4. Kushon-Afrig' o'tish madaniyati (milodiy Sh-V asrlar)

Bu davrlarga oid Amudaryoning o'ng sohilida 250 dan ziyod, so'l sohilida 60 ta qadimiy shahar va qishloqlar o'rni topilgan. Qanqaqal'a, Qo'shqal'a, Tuproqqal'a, Jingilja, Toshxirmon singari qal'a va istehkomlar o'rni bunga misol bo'la oladi.

Xitoyning Tan sulolasi davrida (milodiy VII-X asrlar) Xorazmda asosan turkiy qabilalar yashagan. Tanshu solnomasida shunday deyiladi: "Barcha turk elatlari ichida ho'kiz qo'shilgan arava faqat shu erda (Xorazm) uchraydi. Bu aravalarda savdogarlar turli viloyat va elatlarni aylanib, savdo qilib yuradilar." Bu o'rinda gap Xorazmning savdo-sotiq bilan kun kechiruvchi o'troq aholisi ustida ketyapti. Shu bilan birga Xorazm vohasiga yaqin cho'l va dashtlarda ko'chmanchi va yarim ko'chmanchi chorvador turkiy qabilalar yashagan.

Eron Axomaniylari shohi Kayxusrav (Kir, Kurush) (miloddan avvalgi 558-530 y.) Xorazm va unga tutash hududlarni bosib olgan. Xorazm miloddan avvalgi 6-5 asrlarda Axomaniylar davlatining 16-satrapligi (viloyati) tarkibiga kirgan. Lekin ko'chmanchi Sak (Massagetlar) qabilasi ustiga hujum qilganida Kayxusrav malika To'marisdan engilib, halok bo'lgan. Xorazm o'z mustaqilligini tiklagan. Miloddan avvalgi III asrda esa u Qang davlati tarkibida bo'lgan.

Xorazm tarixining to'rtinchi davri afriq'iyalar sulolasi asoschisi Afrig'gacha (305 y.) bo'lgan davri haqida ma'lumotlar kam. Faqat qadimda Kayxusrav (mil.av. 1200-1140 y.), Saksafar (mil.av. 519- 517 y.), Farasman (mil.av. 329-320 y.), Xusrav

(mil. av. 320 y.) singari xorazmshohlar bo'lganligi, Farasman miloddan avvalgi 328 yilning bahorida O'rta Osiyoga bostirib kirgan makedoniyali Aleksandr (Iskandar) huzuriga muzokara uchun sovg'a-salomlar bilan kelganligi tarixiy manbalarda yozib qoldirilgan.

Abu Rayhon Beruniy afrig'iylar sulolasiga mansub xorazmshohlardan 22 tasining nomini keltirgan. Xorazm davlatining poytaxti dastlab Tuproqqal'a, 305 yildan keyin esa Kot (Kos) shahri bo'lgan. Miloddan avvalgi 4-3 asrlarda Xorazm iqtisodiy va madaniy jihatdan yuksalib, yirik sug'orish kanallari, yangi shahar va qal'alar barpo etilgan. Hunarmandchilik, san'at, ichki va tashqi savdo keng rivoj topgan. Milodiy IV-VIII asrlarda Xorazm yangi yuksalishni boshdan kechirdi. Burgutqal'a, Uyqal'a, Qumbosganqal'a kabi inshootlar ana shu davrlarda qurilgan.

Xorazmning Etil (Volga) bo'yidan Markaziy Osiyo orqali Mo'g'uliston va Xitoyga hamda Eronga boriladigan savdo yo'llari chorrahasida joylashganligi uning iqtisodiy va ma'naviy yuksalishida muhim ahamiyat kasb etgan.

712 yili Xorazmni arablar bosib olgan. Xalifalikning Xurosondagi noibi Qutayba ibn Muslim xorazmliklarning tarixiy adabiyoti va madaniy merosini saqlab kelgan olimlarni qirg'in qilgan va quvib yuborgan. Shu sababli arablar istilosigacha bo'lgan davrdagi yozma tarixiy manbalar deyarli uchramaydi.

III BOB. ILK O'RA ASR O'ZBEKISTON HUDUDLARIDAGI DAVLATLAR

§ III.1. Ilk o'rta asrlarda davlatchilik va boshqaruvning rivojlanishi.

O'tgan asrning oxirlaridan boshlab hozirgi kunga qadar «Avesto» ma'lumotlari (viloyatlarning Aryoshayona bo'yicha birlashishi) Gerodot va Gekatey asarlari («Katta Xorazm»), shuningdek, Ktesiyning qadimgi Baqtriya podsholigi haqidagi ma'lumotlari va nihoyat arxeologik tadqiqotlar natijalari O'rta Osiyoda ilk davlat uyushmalarining paydo bo'lishi muammolarini o'rganish uchun asos bo'lgan bo'lishiga qaramasdan, qadimgi davlatlar hududlari, shakllari, boshqaruv tizimi va sanasi bilan bog'liq bo'lgan mavzularning ayrim yo'nalishlari hamon ilmiy bahslarga sabab bo'lmoqda.

Ijtimoiy-iqtisodiy ahvolni tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, mil. avv. I ming yillikning boshlariga kelib, O'rta Osiyoning nisbatan rivojlangan hududlarida ilk davlat uyushmalari paydo bo'la boshlaydi. Mil. avv. IX-VIII asrlarga kelib, Baqtriya (Janubiy O'zbekiston, Janubiy Tojikiston, Shimoliy Afg'oniston) hududlarida harbiy ahamiyatga ega bo'lgan siyosiy birlashmalar tashkil topadi. o'sha davrda Marg'iyona va So'g'diyona qadimgi Baqtriyaning ayrim qismlari bo'lganligi haqida turli ma'lumotlar bor. Baqtriya Sharqdagi eng muhim harbiy va iqtisodiy markazlardan biri bo'lib, aholining, qudratli shaharlar va qal'alarning ko'pligi, tabiiy xom ashyoga boyligi, muhim markaziy savdo yo'llari chorrahasida joylashganligi, hunarmandchilikning ravnaqi shundan dalolat beradi.

So'nggi yillarda olib borilgan tadqiqotlar «Katta Xorazm», «Qadimgi Xorazm» masalalariga birmuncha aniqliklar kiritdi. Arxeologik tadqiqotlar natijalariga ko'ra, Xorazm tuprog'ida mil. avv. VIII-VII asrlarga oid paxsa yoki xom g'isht turar joylar aniqlanmagan (turar joylar yarim yerto'lalardan iborat). Qadimgi Xorazm davlati mil. avv. VI asrda Amudaryoning o'rta oqimi qismidan Orolga yaqin bo'lgan yerlarda vujudga kelgan. Baqtriya va Xorazm davlatining hududiy chegaralari o'rta Amudaryo oqimidagi yerlar orqali o'tgan. Xorazmning yirik sug'orish inshootlari mil. avv. VI-V asrlarga oiddir. O'lkada bu davrlarga oid ko'pgina shahar va qishloqlar xarobalari ochib o'rganilgan. Ulardagi topilmalar,

manzilgohlar, xom g'isht va paxsadan qad ko'targan bo'lib, aholi dehqonchilik va chorvachilik bilan shug'ullangan. Shaharlarda hunarmandchilik rivojlangan.

Qadimgi So'g'diyona, Zarafshon va Qashqadaryo vohalarida joylashgan bo'lib, janubi-sharqda Baqtriya, shimoli-g'arbda Xorazm bilan chegaradosh bo'lgan. So'g'diyona haqida «Avesto», ahmoniy davri, mixxat yozuvlari va yunon-rim tarixchilari ma'lumotlar beradilar. Qashqadaryodagi bir qator turar-joylar va uy-qo'rg'onlar qoldiqlari mil. avv. IX-VIII asrlarga oiddir. So'g'diyonada Afrosiyob, Yerqo'rg'on, Uzunqir kabi yirik shahar markazlari hamda qo'shni viloyatlar va davlatlar bilan o'zaro iqtisodiy va madaniy aloqalar rivojlanadi.

O'zbekiston hududlaridagi eng qadimgi davlatlar haqida zardo'shtiylarning muqaddas diniy kitobi «Avesto», ahmoniylarning mixxat yozuvlari (Bexistun, Naqshi Rostam, Suza, Persepol) yunon-rim tarixchilarining (Gerodot, Gekatey, Kursiy Ruf, Arrian, Strabon va boshqalar) ma'lumotlar beradi. So'nggi yillarda qadimgi Baqtriya, So'g'diyona va Xorazm hududlarida olib borilgan arxeologik tadqiqotlar ko'p hollarda yozma manbalar ma'lumotlarini tasdiqlaydi.

Mil. avv. 559 yilda Eronda podsho Kir II ahmoniy davlatiga asos soladi. Mil. avv. 545-540 yillarga kelib ahmoniy podsholari O'rta Osiyodagi Parfiya, Marg'iyona, Baqtriya, So'g'diyona kabi viloyatlar va Ko'chmanchi qabilalar ustidan o'z hukmronliklarini o'rnatdilar. O'rta Osiyo xalqlari bosqinchilarga qarshi mardonavor kurash olib bordilar. Xususan, Ko'chmanchi massaget qabilalari ahmoniylarning katta qo'shinlarini tor-mor etdilar (mil. avv. 530 yil). Bu jangda fors podshosi Kir II ham halok bo'ldi. Shuningdek, mil. avv. 522 va 519-518 yillarda Marg'iyonada hamda saklar o'lkasida forslarga qarshi qo'zg'olonlar ko'tariladi.

Bu davrda qadimgi Baqtriya aholisining asosiy mashg'uloti dehqonchilik edi. Qalaimir, Kuchuktepa, Qiziltepa, Qizilcha, Bandixon kabi mil. avv. VI-IV asr yodgorliklaridan ko'plab mehnat qurollari topilgan. Dehqonchilik sun'iy sug'orishga asoslangan. Bu hududlarda undan tashqari chorvachilik, kulolchilik, temirchilik va badiiy hunarmandchilik (Amudaryo xazinasi) ham rivojlanadi.

Mil. avv. VI-IV asrlarda So'g'diyonada ko'plab shahar va qishloqlar bo'lib, ular fors podsholariga katta-katta soliqlar to'lab turganlar. Xususan, bu davrga oid Uzunqir, Yerqo'rg'on, Afrosiyob, Lolazor, Xo'ja Bo'ston, Sangirtepa, Chordara, Qo'rg'oncha, Ko'ktepa kabi 50 dan ziyod yodgorliklar o'rganilgan. Bu hududlardan topilgan ko'pgina topilmalar aholining dehqonchilik, chorvachilik va hunarmandchilik bilan shug'ullanganidan dalolat beradi. Shuningdek, savdo-sotiq va o'zaro aloqalar ham ancha rivojlanadi.

Bu davrda Xorazm hududlarida ham yirik-yirik manzilgohlar mavjud edi. Qishloqlarda dehqonchilik, shaharlarda esa hunarmandchilik rivojlangan edi. Jonbosqal'a, Ko'zaliqir, Tuproqqal'a kabilar madaniy markazlar hisoblangan. O'zbekistondagi eng qadimgi mahalliy yozuv namunalari ham Xorazm hududlaridan (Tuproqqal'a, mil. avv.IV asr) topilgan.

Mil. avv. 329 yilga kelib, makedoniyalik Iskandarning O'rta Osiyoga yurishlari boshlandi. Iskandar qo'shinlari So'g'diyona va Ustrushona yerlarida juda qattiq qarshilikka duch keldi. Janglarda Iskandarning o'zi ham bir necha marta yarador bo'ldi. Mil. av.. 329-327 yillar davomida mahalliy So'g'diy aholi Spitaman boshchiligida yunon-makedon bosqinchilariga qarshi kurash olib borib, ularga juda katta talafot yetkazdi. Iskandar qo'shinlari hech qachon So'g'diyonadagidek qarshilikka uchramagan edi.

Mil. avv. 323 yilda makedoniyalik Iskandar vafot etganidan so'ng O'rta Osiyo yerlari Salavka hukmronligi ostiga o'tadi (mil. avv. 306 yil). Salavkiylardan bo'lgan Antiox I davrida (mil. avv. 280-261 yy.) O'rta Osiyo viloyatlarida tinch hayot boshlanib, qishloq xo'jaligi, hunarmandchilik, savdo-sotiq anchagina rivojlanadi. O'rta Osiyo yerlari salavkiylar davlatining muhim qismi bo'lib, harbiy-strategik va iqtisodiy ahamiyatga ega edi. O'rta Osiyo viloyatlarining salavkiylar davlati tarkibiga kirgan davri yunon-makedon yurishlari paytida vayron bo'lgan ishlab chiqaruvchi kuchlarning va baqtriyaliklar, So'g'diylar hamda pafiyaliklarning bosqinchilarga qarshi kurashda birlashuv davri bo'ldi.

Mil. avv. III asrning o'rtalariga kelib, salavkiylar davlatida taxt uchun o'zaro kurashlar avj olib ketdi. Natijada dastlab Parfiya, keyin esa Yunon-Baqtriya

davlatlari salavkiylardan ajralib chiqdi. Mil. avv. 250 yilda birinchi Yunon-Baqtriya podshosi Diodod o'zini hukmdor deb e'lon qildi va tangalar zarb etdi. Tangashunoslik ma'lumotlariga ko'ra, mil. avv. III asrning oxirigacha Yunon-Baqtriya bir necha podsholar o'tganki, ular yozma manbalarda eslatilmaydi. Mil. avv. II asr boshlariga kelib Demetriy, Yevkratid kabi podsholar Yunon-Baqtriya yerlarini janubga tomon kengaytirib boradilar. Mil. avv. II asrning ikkinchi yarmidan boshlab Ko'chmanchi qabilalarning hujumlari va o'zaro kurashlari natijasida Yunon-Baqtriya podsholigi qulatiladi.

Mil. avv. III asrning o'rtalarida mustaqil davlat sifatida tashkil topgan Parfiya davlati hozirgi Turkmaniston va Eronning bir qismini o'z ichiga olgan. Bu davlatning birinchi hukmdori Arshak bo'lib, u mil. avv. 247 yili taxtga o'tiradi. Mil. avv. 235 yildan boshlab, Parfiya podsholari o'z yerlari hududlarini kengaytirib bordilar. Milodiy III asrning birinchi choragida sosoniylar arshakiylar hukmronligini tugatib, Parfiyada hokimiyatni qo'lga oldilar. Antik davr Parfiyaning qishloq xo'jaligida qullar mehnatidan keng foydalanilgan. Mil. avv. III asr o'rtalaridan boshlab Parfiya davlati hozirgi O'zbekiston hududlarida joylashgan qadimgi viloyatlar – Xorazm, Baqtriya, So'g'diyona bilan siyosiy, madaniy va iqtisodiy munosabatlarni ayniqsa rivojlantirdi.

Undan tashqari, parfiyaliklar besh asr davomida Hindiston, O'rta Osiyo va Xitoyning G'arb mamlakatlari bilan qilgan savdo aloqalarida vositachilik qildilar. Parfiyaliklarning yozuvi oromiy (Niso hujjatlari) yozuvi bo'lib, zardo'shtiylik diniga e'tiqod qilishgan.

Qadimgi Farg'ona turli davr manbalarida Dovon, Boxan, Polona, Parkana kabi nomlar bilan eslatib o'tiladi. Ma'lumotlarga qaraganda Ershi (Marhamat) shahri Dovonning poytaxti edi. Antik davr Dovon aholisi dehqonchilik, uzumchilik, yilqichilik bilan shug'ullanishgan. Dovonning «samoviy otlari» o'lkadan tashqarida ham ma'lum va mashhur bo'lgan.

Mil. avv. II asrning oxirlarida Xitoy hukmdorlari Dovon yerlarini bosib olishga harakat qildilar. Ammo qo'shni davlatlar tomonidan qo'llab-quvvatlangan dovonliklar o'z mustaqilligini saqlab qolishga muvaffaq bo'ldilar.

Mil. avv. III asrlar boshlarida paydo bo'lgan Qang' davlatining hududlari Sirdaryoning o'rta oqimidagi yerlar edi. Mil. avv. II-I asrlarda Qang' davlati yerlari kengayib, Amudaryo va Sirdaryo oralig'idagi yerlar va Xorazmni o'z ichiga oladi. Antik davrida Qang' davlati ancha rivojlangan davlat edi. O'troq aholi asosan vodiylarda yashab, dehqonchilik, bog'dorchilik va hunarmandchilik bilan shug'ullanib kelishgan. Qang' hukmdorlarining markaziy shaharlari ikkita edi. Ular yozni O'trorda (hoz. Aris va Turkiston oralig'ida), qishlovni esa Qang'a (hoz. Toshkent viloyati Oqqo'rg'on tumanida) shaharlarida o'tkazar edilar.

Mil. avv. I asrga kelib, O'rta Osiyo hududlarida antik davrning eng qudratli davlatlaridan biri bo'lgan Kushon davlati tashkil topadi. Dastlabki hukmdorlar Kadfiz I va Kadfiz II lar davlat yerlarini kengaytirib, pul islohoti o'tkazadilar. Milodiy II asrga kelib Kushon davlati yerlari Shimoliy Hindiston, Afg'oniston, O'rta Osiyo, Sharqiy Turkistondan iborat edi. Kushon hukmdorlari, xususan Kanishka (II asr) davrida savdo-sotiq, ichki va tashqi savdo ayniqsa rivojlanadi. Dehqonchilik, chorvachilik, hunarmandchilik ham ancha taraqqiy etadi. Bu jarayonda Buyuk Ipak yo'lining ahamiyati nihoyatda katta bo'ldi. Kushon davlatida asosiy din buddaviylik bo'lib, yunon, zardo'shtiylik aqidalariga ham e'tiqod qilinar edi.

Antik davr O'rta Osiyo xalqlari moddiy va ma'naviy madaniyatida jiddiy o'zgarishlar sodir bo'ldi. Mil. avv. IV-II asrlar oromiy yozuvi asosida Xorazm, Parfiya va So'g'd yozuvlari paydo bo'ldi. Kushon davriga kelib yana bir yozuv-Kushon (Baqtriya) yozuvi shakllanadi. O'rta Osiyo va Afg'oniston hududidagi arxeologik tadqiqotlar antik davr madaniyatining gullab yashnaganidan dalolat beradi. Ayritom va Ko'hna Termizda Budda ibodatxonalari ochilgan. Fayoztepa, Quva, Xolchayon, Dalvarzin kabi ko'hna shaharlarda ham saroylar, ibodatxonalar ochilib, ular yuksak madaniyatga ega ekanligi kuzatilgan. 1972 yilda Dalvarzintepadan (Surxondaryo) tilla buyumlar xazinasini (32 kg) topilgan. Umuman, antik davr Qang', So'g'd, Farg'ona yerlarida mavjud bo'lgan madaniyat o'z taraqqiyotining yangi bosqichiga ko'tariladi.

§ III.2. Ilk O'rta asr davlatlarining o'ziga xos xususiyatlari.

Milodiy IV-VI asrlar Turon zamin tarixi. Bu davr ko'chmanchi qabilalarning kirib kelishi, qabilalar ittifoqi (konfederatsiya)ning yuzaga kelishi-yangi siyosiy kuchlarning paydo bo'lishi bilan izohlanadi. Shunday kuchlardan biri - Kidariylar xususidagi asosiy ma'lumotlar Xitoyning Beyshi solnomasida hamda g'arb tarixchilaridan biri Prisk Paniyskiy ma'lumotlarida uchraydi. Bu ma'lumotlarga ko'ra Kidoriylarning yuechjilar hukmdori Sidolo yoki tadqiqotlar fikricha Kidor (ba'zan "Kidara") IV-asrda hukmronlik qilgan.

Yaponiyalik tadqiqotchi K. Yenoki braxmiy yozuvidagi bir qator "Kidara Kushon sha" deb yozilgan tangalarni tadqiq qilgan. Bu taxminan 390-430 yillarga mansub bo'lib, hind tadqiqotchisi A. Bivarning xulosasiga ko'ra bunday tangalar 2 ta hokim tomonidan bir vaqtning o'zida zarb etilgan. Yenokining fikricha Kidoriylar Tohariston va Gandxarni 412-437 yillar oralig'ida o'z qo'llarida birlashtirganlar.

Kidariylar masalasi nisbatan ancha kam o'rganilgan va tadqiqotlar davom ettirilishi kerak bo'lgan masaladir. Chunki yuqoridagi ma'lumotlarni (jumladan Beyshi) keyinchalik boshqa manbalar tilga olmaydi. Hindistonga (456 y) ketib Gupta davlatini bosib olganlaridan keyingi kidoriylar to'g'risidagi ma'lumotlar ham deyarli yo'q. Faqatgina ular Hindistonda 15 yil hukmronlik qilganlari, 477 yil Gandxardan Xitoyga elchilar yuborganliklari ma'lum xolos. Ba'zi tadqiqotchilar ularni Sharqiy Turkistondan kirib kelgan kushonlar qoldig'i deb ham tushuntirish berishadi. Shuningdek, kidoriylarning O'rta Osiyoning janubida xiyoniylar bilan birga ittifoqchiligi hamda ularning Eronga qarshi birgalikdagi harakatlari to'g'risida ham turli taxmin va fikrlar mavjud. IV-asr o'rtalarida Turon o'lkasiga shimoldan ko'chmanchi xion qabilalarining hujumi boshlanadi. Tarixda ular xiyonit yoki xioniylar nomi bilan tanilganlar. Xioniylarning 353 yil So'g'd ustiga yurish qilganliklari ma'lum. Xioniylar hukmdori o'rta yoshlardagi tadbirkor va aqlli davlat arbobi Grumbat ismli shaxs bo'lgan. 359 yil xioniylar o'z ittifoqchilik burchlariga ko'ra Shopur II bilan Suriyaning Amida (Umda) shahri uchun bo'lgan jangida qatnashishadi. Bu jangda Grumbatning o'g'li halok bo'ladi.

IV-asrning 60-70 yillarda Eron bilan munosabatlar yana keskinlashib, Eron shohi Shopur II xioniylar bilan kurash olib boradi va ikki marotaba yengiladi. Bu kurashda xioniylar kidoriylar bilan ittifoqchilikda bo'lgan bo'lishlari ham ehtimoldan xol emas. Bu davrda Sirdaryo bo'yidan Amudaryogacha cho'zilgan hudud xioniylar ta'siri ostida bo'lgan.

Umuman olganda, xioniylar kidariylar bilan ko'pincha ittifoqda harakat qilgan bo'lishlari kerak. Chunki tadqiqotlarda ularning nomi ko'pincha birgalikda uchraydi. Ularni ba'zida eftalitlarning bir qismi deb ham hisoblashadi. Fikrimizcha, ulardagi o'zaro farqlanish faqat sulolaviy bo'lgan. Chunki ularning hammasi qon-qardosh turkiy xalqlardan bo'lishgan.

Eftalitlar tarixi yuzasidan ma'lumotlar, rim, vizantiya, suriya va arman tarixchilari asarlarida hamda Xitoy solnomalarida, pahlaviy matnlarida, Firdavsiyning "Shohnoma" asarida ham uchraydi.

Ushbu manbalarning ma'lumot berishicha, o'sha davrda eftalitlar bilan Eron sosoniylari o'rtasida bir necha marta to'qnashuvlar bo'lib o'tadi. Ular o'rtasidagi birinchi to'qnashuvlar V-asrning 30-yillaridayoq sodir bo'lgan edi. Arman tarixchisi Vardapetning ma'lumotiga ko'ra V asrning 50-yillariga kelib Eftalitlar konfederatsiyasi nihoyatda kuchayib ketadi. 456 yildayoq eftalitlar o'z elchilarini Xitoyga jo'natadilar. Eftalitlar tobora janubga qarab siljiy boshlaydilar va o'z navbatida ularning Eron bilan munosabatlari keskinlasha boradi. Sosoniylar bilan hal qiluvchi kurashlar davri shoh Peroz (Feruz) davriga (459-484 yy.) to'g'ri keladi. Taxminan 457 yili Vaxshunvor (Axshunvor) Eftalon boshchiligidagi eftalitlar Chag'oniyon (Surxondaryo vil. Termiz shahridan shimoldagi yerlar), Tohariston, Badaxshonda o'z hokimiyatlarini o'rnatadilar.

459-yilda Eron taxtiga Peroz chiqadi. Manbalarda Perozning hokimiyatga kelishi eftalitlar bilan bog'liq ravishda bayon qilinadi. Peroz Eftalitlarning kuchayib borishini vaqtinchalik deb bilib, ular kuchidan Eron taxtiga kelish uchun foydalangan bo'lishi kerak. Ammo, eftalitlar qudrati oshib tez orada ular sosoniylarga ham qarshi turishlarini anglagan Peroz eftalitlarga qarshi jangga kiradi. Bu to'g'risidagi ma'lumotlar "Baxman-Yashta"da ham, arab tarixchisi at-

Tabariyning asarlarida ham uchraydi. Peroz (459-484) 3 marotaba eftalitlarga qarshi yurish qiladi.

Birinchi kurashdayoq Peroz mag'lubiyatga uchraydi va asirga tushadi. Vizantiya imperatori Zenon o'rtaga tushib uni ozod qilib oladi. Peroz chegaradagi Talqon (Talikon) shahrini eftalitlarga topshirish va Varaxran V Bahromgo'r belgilagan Toshminordagi chegaradan o'tmaslik majburiyatini oladi. Bu mag'lubiyatdan xulosa chiqarib olmay, u yana 2- marotaba eftalitlar ustiga yurish boshlaydi. Bu kurashda ham mag'lubiyatga uchragach Peroz asirga olinadi va 30 xachir kumush tanga to'lash majburiyatini oladi. Biroq xazinadan 20 ta xachirga yetgulik mablag' topiladi xolos. Perozning yosh o'g'li Kubod eftalitlar qo'lida garovga qoldiriladi, shundan keyingina Peroz tutqunlikdan xalos etiladi. U eftalitlarga 2 yil mobaynida soliq to'lab turish majburiyatlarini ham oladi.

Prisk Paniyskiyning ma'lumoticha, 3-urushga bahona bo'lib Perozning eftalitlarni aldashi xizmat qilgan. Peroz o'lpon to'lab bo'lgach, eftalitlar bilan munosabatni yaxshilashga harakat qiladi. U eftalitlarga sulh tuzishni va o'zining tinch maqsadlarini namoyon etish maqsadida "Xunlar hukmdoriga" o'z taklifini kafolati sifatida singlisini unga turmushga berishini taklif etadi. Singlisi o'rniga esa o'z kanizak ayollardan birini jo'natib yuboradi. Izzat-nafsi toptalgan eftalitlar va sosoniylar o'rtasida 484 yili oxirgi kurash boshlanib ketadi. Bu kurash Marv yaqinida sosoniylarning tugal mag'lubiyati bilan yakunlanadi.

Sosoniylar qudratiga eftalitlar tomonidan shunday qilib chek qo'yildi. Eronning o'zida shu vaqtga kelib ichki siyosiy ahvol keskinlashib ketgan edi. Og'ir iqtisodiy ahvol, qulchilikning yemirilishi, soliqlarning o'sishi, quyi tabaqalarning qashshoqlanishi, urushdan keyingi xonavayronliklar natijasida bu hududlarda norozilik harakatlari boshlanib ketadi. Xalq g'alayonlari diniy tus olib keng tarqaladi.

Mazdak Hamadon (470-529) zardo'shtiylikning asl g'oyalarining hayotga tadbiq qilmoqchi bo'lib, o'z harakat mafkurasini yaratdi. Mazdak ta'limoticha, kishilar bu dunyoning ne'matlaridan barobar foydalanishlari lozim, Uning fikricha, ijtimoiy hayotga jamoa huquqlarini tiklash, yer-suv, mol-mulkka barobar egalik

qilish hammaning o‘zaro tengligiga erishish lozim edi. Mazdak ta’limoti asosida uch “zlik-“zan”, “zar”. “zamin” tengligi g‘oyasi yotar edi. Mazdak tarafdorlarining soni Eronda juda ko‘payib ketdi.

Mazdakiylar harakati nihoyatda kuchayib ketgach Kubodshohning (488-531) o‘zi u bilan hisoblashishga majbur bo‘ldi. Kubod Mazdak tarfiga o‘tib uni Eronning bosh kohini etib tayinladi. Mazdak hokimiyatni o‘z qo‘liga kiritib olgach, uning tarafdorlari oxir-oqibatda Kubodni 496 yilda taxtdan ag‘darib tashlab zindonga tashlaydilar. Uning o‘rniga ukasi taxtga chiqadi. Kubod zindondan qochib, eftalitlar dargohidan panoq topadi. U yoshligidanoq eftalitlar huzurida o‘sgan va eftalitlar hukmdorining singlisiga uylangan edi. Kubod eftalitlardan yetarlicha harbiy yordam olib 499-yili Eronga yurish qiladi. Chegaraga yetgan paytdayoq ukasi buni eshitib taxtni tashlab qochadi. Kubod shoh I yana taxtga o‘tirganidan so‘ng avval mahfiy, keyinchalik oshkora mazdakiylikka qarshi kurash olib boradi. 529-yilda Mazdak qatl ettirilib, uning tarafdorlariga qarshi ayovsiz kurash olib boriladi. Kubodning o‘g‘li Xusrav I Anushervon (531-579) davrida keng miqyosli islohotlar o‘tkazilishi bilan birga mazdakiylar harakatiga butkul chek qo‘yiladi.

Eftalitlar esa o‘z qo‘llari ostida Tohariston, Badahshon, So‘g‘d, Sharqiy Turkiston va O‘rta Osiyoning boshqa ba’zi yerlarini birlashtirdilar. Xitoy muallifi tili bilan aytganda “Kongyust (Xorazm, So‘g‘d, Shosh), Xo‘tan, Shale (Qashqar), Ansi (Parfiya) va o‘ttizga yaqin boshqa (katta)-kichik viloyatlar eftalitlar hukmdoriga qaram bo‘ldi”. V asrning 2-yarmida Gandhar, keyinchalik shimoliy Hindistonning ba’zi hududlarini, Qobul va Panjob vodiylarini ham Eftalitlar istilo qildilar. Shimoliy Hindistonda avval To‘ramon, so‘ngra uning o‘g‘li Mehirakula eftalitlar davlatini tashkil etdilar.

Kubodshoh eftalitlar bilan deyarli tinch-totuv yashadi. U 502-506 yillarda eftalitlar bilan ittifoqchilikda Vizantiyaga qarshi yurishlarida ishtirok etdi. Eftalitlar O‘rta Osiyo, Sharqiy Turkiston, Shimoliy Hindiston, Sharqiy Eronni birlashtirgan ulkan davlatga asos soladilar. Eftalitlar davlati davridagi ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar yer egaligi munosabatlarning shakllanishi bilan izohlanib,

bu davrdagi ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy hayot ham o'ziga xosligi bilan ajralib turadi.

Eftalitlar hukmronligi davridagi ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayot.

Ilk o'rta asrlardagi Xitoy manbalarida eftalitlarning ko'chmanchi qabilalar ekanligi, ularning yurtida shaharlar yo'qligi, o'zlari o'tloqlarda yashaganliklari ta'riflanadi. Keyingi davr tarixchilari xususan, g'arb manbalarida esa boshqacha ma'lumotlar keltiriladi. Vizantiyalik muarrih Prokopiyy Kesariskiy (VI asr) shunday ma'lumot beradi: "Eftalitlar (saltanati) bir hukmdor orqali idora etilib, o'z qonuniy (adolatli) davlatchiliklariga egadirlar. O'zaro va qo'shnilar bilan (munosabatlarda) adolat me'yorini saqlashda vizantiyaliklar va forslardan hech bir qolishmaydilar".

Demak, eftalitlar davrida ham kushonlar davridagi kabi saltanat yakka hukmdor tomonidan boshqarilgan. Xitoy manbalariga ko'ra taxt otadan bolaga qolmay, shu suloladan kim loyiq deb topilsa o'sha taxtga o'tirgan. Demak, ana shu nomzodlik aniqlab taqdim etadigan qandaydir bir kengash ham mavjud bo'lgan. Bu kengash sulolaning mo'tabar namoyandalari hamda saltanat arkonlaridan iborat bo'lgan bo'lishi ham ehtimoldan xoli emas. Shuni ham yoddan chiqarmaslik kerakki, bunday ulkan saltanatni boshqarishda yuksak darajada faoliyat ko'rsatuvchi markaziy hokimiyatga erishish qiyin edi. Shuning uchun Shimoliy Hindiston, Sharqiy Turkiston hududlarida va ehtimol boshqa ba'zi viloyatlarda ham boshqaruv eftalitlar nomidan mahalliy xonadon (sulola) tomonidan olib borilgan. Fikrimizcha, mintaqa davlatchilik tarixida ifoda etib kelingan satrapiyalik boshqaruvi, ya'ni markaziy hokimiyat noiblari orqali idora etish usuli ham bu vaqtda o'z ahamiyatini yo'qotmagan bo'lishi kerak.

Hali kushonlar davridayoq aholi orasida yer va qo'rg'onlarga ega bo'lgan aslzodalar ajralib chiqib boshlagan. Dehqonlar mahalliy zodagonlarga ko'proq tobe bo'la borgan. Eftalitlar ulkan hududda boshqaruvni qo'lga kiritgach obod dehqonchilik vohalarga, rivojlangan shaharlarga, savdo yo'llariga ega bo'ladilar. Vaqt o'tishi bilan ular mahalliy omilkor aholi bilan aralashib keta boshlaydilar.

Eftalitlarning bir qismi ko'chmanchi chorvador bo'lsa, ikkinchi-kattaroq qismi shahar va qishloqlarda yashaydigan o'troq aholi bo'lgan. Tohariston va

So'g'dda dehqonchilik va bog'dorchilik rivoj topgan. Qashqadaryo va Zarafshon vodiylarida g'alladan tashqari sholi ham yetishtirilgan, Xitoy manbalarida qayd etilishicha V-VI asrlarda Sharqiy Turkiston va O'rta Osiyo yerlarida ko'plab g'o'za ekilar edi. O'rta Osiyo paxta tolasi Xitoyda ham mashhur bo'lgan. Tog' va tog' oldi yerlaridagi aholi yilqichilik bilan shug'ullangan. Farg'ona vodiysida zotdor armug'onlar ko'paytirilar edi. Yangi yer egaligi munosabatlarining tarkib topa boshlashi bilan sug'oriladigan yer maydonlarining ma'lum bir qismi mulkdor zodagon tabaqa vakillari-"dehqonlar" qo'lida to'plana boshlangan edi. Buning natijasida qishloq jamoasining erkin qo'shchilari ma'lum darajada zadagon dehqonlar asoratiga tushib, ularga qaram kadivarlarga aylanib boradi.

Obikor yerlarning bir qismi ibodatxonalar mulki hisoblangan. Bunday yerlar "vag'nze" deb yuritilgan edi. Yaylovlarning asosiy qismi oqsoqol zodagonlar qo'lida bo'lgan. Eftalitlar orasida ijtimoiy tabaqalanish ham kuchli bo'lgan. Ular orasida yer egaligi munosabatlari shakllanishi bilan bir qatorda ibtidoiy-jamoa tuzumi sarqitlari hali saqlanib qolgan edi. Xitoy solnomalarida qayd qilinishicha eftalitlarda poliandriya (ko'p erlik) ham tarqalgan edi. Bir necha aka-ukada umumiy bitta xotin bo'lib, ayolning boshidagi qalpog'ining burchaklari soniga ko'ra aka-ukalar nechtaligini bilish mumkin edi. Oliy tabaqa vakillari ichida ko'p xotinlilik odati ham keng tarqalgan. Eng boy zodagonlar doimiy hamroh sifatida 20 va undan ortiq do'stlarga ega bo'lishgan. Zodagon vafot etganda, qoida bo'yicha uning do'stlari ham tirikligicha qabrga qo'yilgan.

Jinoyatchilik yuzasidan jazo nihoyatda qattiq bo'lgan. O'g'irilik qilgan shaxs kim bo'lishidan qat'iy nazar boshi kesilgan. O'g'irlangan mol-mulk miqdoridan qat'iy nazar o'n barobar qilib undirib olgan. Eftalitlar kuchli qo'shinga ega bo'lishgan. Lashkarning asosiy qismini suvoriylar tashkil etgan. Suvoriylar asosan gurzi va qilich bilan qurollanganlar. Xitoyliklar ularni mohir kamonboz deb ham ta'riflashgan. Bu davrda otliq qo'shin asosiy ahamiyat kasb etgan.

V-VI asrlarda dehqonchilik vohalarida eftalitlarning o'troqlashuvi kuchayadi. Buning oqibatida esa obikor yerlarga bo'lgan muhtojlik ortadi. Kichik-kichik sug'orish kanallari qazib chiqarilib minglab gektar yangi yer maydonlari

o'zlashtiriladi. Sug'orish texnikasi takomillashadi, shohariqlar chuqurlashib, yer-suv va sershoha sug'orish tarmoqlariga aylanadi. Hozirgi vaqtda ham mavjud bo'lgan Zahariq, Bo'zsuv, Darg'om kanallari V asrda barpo etilgan eng yirik sug'orish tarmoqlaridan bo'lgan.

Shuningdek tog' oldilariga suv chiqarish uchun suv chiqarish asboblardan keng foydalanilgan. Yangi o'zlashtirilgan yerlarda zodagon dehqonlarning qalin va katta-katta xom g'ishtdan urib chiqilgan hamda mustahkam asos (fundament) ustiga qurilgan qo'rg'onlari, istehkomlari yuzaga kela boshlagan. Istehkomlarning to'rt burchagi baland minoralar bilan mustahkamlanib, devoru yo'llari bir necha qator kamondan o'q uzgich nishon tuynuklari bilan ta'minlangan. Qalin mudofaali qo'rg'onlar ilk o'rta asrning o'ziga xos me'morchilik namunalaridan bo'lib, Nahshab vohasidagi Zahoki-Moron qal'asi, Buxorodagi Shahri Vayron, Xorazmdagi Fir qal'asi shular qatoridandir. Vohalarni tashqi dushmandan himoya qilish maqsadida bir necha chaqirimlab uzunlikdagi qalin devorlar barpo etilgan. Samarqand vohasidagi 12 ta darvozaga ega bo'lgan "Devori qiyomat", Buxoro vohasidagi uzunligi 336 kilometrli "Kampirak", Toshkent vohasidagi "Kampirdevor" istehkom devorlari shular jumlasidandir.

Bu davr me'morchiligida qasrlar qurilishi ayniqsa ahamiyatli bo'lgan. Qasrlar odatda 2 qavatli, shipi tekis, gumbazsimon va ravoqsimon yopilgan bir necha xonadan iborat bo'lgan. V asrdan saroy, qasrlar qurilishida paxsa va xom g'isht bilan bir qatorda pishiq g'ishtlar ham ishlatilina boshlangan. Saroy va ibodatxonalar devorlari odatda rangdor tasvirlar bilan bezatilgan. Bunday tasviriy san'at namunalaridan biri Bolaliktepa (Surxondaryo) qasri devorlarida qayd etilgan. Bu nodir tasviriy san'at asarida bashang kiyingan ayol va erkaklarning ziyofat tasviri tushirilgan rasmlar katta did va mahorat bilan ishlangan. Shu davr moddiy madaniyat yodgorligi sifatida Xorazmdagi Tuproqqal'a xarobasini ham ko'rsatish mumkin. Bu qal'a o'zining istehkom devoriga ega bo'lib, qal'a ichidagi to'g'ri yo'naltirilgan ko'chalar shaharni 10 ta mavzega bo'lib turgan. Shaharning shimoliy-g'arbiy qismida ko'tarma supa ustiga xom g'ishtdan saroy qurilgan. Uning yonida ark binosi bo'lgan. Shuningdek 100 ga yaqin turar joy, xo'jalik

binolari, 8 ta saroy zali xarobalari, qadimgi xorazmiy yozuvidagi 80 tadan ortiq hujjatlar topilgan.

Eftalitlar me'morchiligining ajoyib namunalaridan biri Buxoro yaqinidagi Varaxsha saroyidir. Bu qo'rg'on ulkan kvadrat shakldagi tepa ustiga qurilgan. Devorlari ganch qilinib, devoriy suratlar bilan bezatilgan. Xonalar keng-keng bo'lib qalin devorlar bilan bir-biridan ajralib turgan.

Tadqiqotchilarning fikricha, VI-VII asrlarda bu yerda buxorxudotlarning qarorgohi bo'lgan. Shuningdek Toshkent vohasidagi Oqtepadan, Jo'nariq yaqinidan, Poykentdan va boshqa bir qator joylardan eftalitlar davri yodgorliklari topib tadqiq qilingan.

Eftalitlar davrida hunarmandchilik ham rivoj topgan. Ayniqsa kulolchilik, shishasozlik, chilangarchilik, bo'zchilik, zargarlik, qurolsozlik kasb-hunarlarini ravnaq topgan. Chochda yasalgan o'q va yoy "kamoni chochiy" nomi bilan mashhur bo'lgan. Katta-kichik shaharlar soni ko'paygan. Birgina Zarafshon vohasida Rivdod, Kushoniya, Xariman, Arqud, Romiton, Varaxsha, Poykand kabi savdo hunarmandchilik shaharlari mavjud edi. Ayrim ma'lumotlarga ko'ra Poykand shahri eftalitlarning poytaxti bo'lgan (xitoyliklar uni Bi deb, arablar keyinchalik "Madinat-ut-tujjor" deb atashgan). Poykand shahri ayniqsa zirhli po'lat qurollar ishlab chiqarish bilan ham mashhur bo'lgan. Shuningdek shu davrda rangli oynalar ishlab chiqarish ham keng tarqalgan. Eftalitlar halqaro savdo sohasida Eron, Vizantiya, Hindiston, Xitoy bilan savdo-sotiq munosabatlarini olib borishgan.

Eftalitlar "Ipak yo'l" savdo yo'lini nazoratda tutishga harakat qilganlar. Ipak yo'l savdosida va umuman savdogarlar ichida so'g'diylar yetakchi o'rinni egallashgan edi. Bu paytda O'rta Osiyodan o'tin, kumush, Badaxshon la'lisi, rangli shisha va shisha buyumlar, turli xil mevalar, ip-gazlama, qorako'l, zotdor tulporlar olib chiqilib savdo qilinardi.

Avval boshda eftalitlar sosoniylardan bo'lgan Varaxran V va Perozning kumush tangalaridan o'zaro savdo-sotiqda foydalanar edilar.

Keyinchalik eftalitlar Eron shohi Varaxran V Bahromgo‘r tangalariga taqlid qilgan xolda kumush tangalar zarb qildilar. Bundan tashqari Buxoro, Poykand, Samarqand, Xorazmdagi mahalliy hokimlar tomonidan chiqarilgan chaqa tangalar ichki savdoda keng muomalada bo‘lgan.

V-VI asrlarda diniy e‘tiqod va tasavvur bilan uzviy bog‘liq bo‘lgan tasviriy san‘at-koroplastika-ma‘budalarning sopol haykalchalarini yasash va ularga topinish keng yoyiladi. Sopol haykalchalar hududlarga ko‘ra turlicha bo‘lib, kiyim-kechaklari, yuz siymolari, taqinchoqlari jihatidan ham bir-biridan farqlangan.

Ulkan hududdagi eftalitlar davlati juda ko‘p xalqlarni o‘zida birlashtirganligi sababli undagi diniy e‘tiqodlar ham turlicha bo‘lgan. So‘g‘dda zardo‘shiylik keng tarqalgan bo‘lsa, Tohariston va Sharqiy Turkistonda buddizmga e‘tiqod qiluvchilar ko‘pchilikni tashkil etgan. Shaharlarda xristian va yahudiy jamoalari ham mavjud edi. Moniylik va Mazdak ta‘limoti tarafdorlari ham paydo bo‘layotgan edi. Zardo‘shlar Nohid, Mitra, Siyovush kabi mahalliy ma‘budalarga ham sig‘inganlar. Navro‘z kuni Buxoro otashparstlarlari Siyovush qabri ustida xo‘roz so‘yib, qurbonlik qilar edilar. Janubda buddizmning ta‘siri ko‘proq bo‘lgan edi.

Chorvador aholi turkiycha so‘zlashar, turkiy til tobora ko‘proq yoyila boshlagan edi. O‘troq aholining katta qismi so‘g‘diy tilida so‘zlashar edilar. So‘g‘diy tili va yozuvi Yettisuv, Farg‘onadan o‘tib Sharqiy Turkistonga qadar yetib boradi. Uning xususiy so‘g‘d-“samarqand usuli” keng yoyilgan edi. Bundan tashqari xorazm, kxaroshtiy, buxoro yozuvlari ham mavjud bo‘lgan. Eftalitlar yozuvi baqtriya yozuvi asosida paydo bo‘lgan. Syuan Szanning yozishicha u 25 ta harfdan iborat bo‘lib, xat chapdan o‘ngga qarab ko‘ndalangiga yozilgan. Bunday yozuv namunalari Zangtepa, Qoratepa, Afrosiyob xarobalaridan, Kofirqal‘adan topilgan.

Turkiy hoqonlik hukmronligi davrida O‘rta Osiyo. Turon davlatchiligi tarixida Turkiy hoqonlik davlati davri katta va muhim o‘rinni egallaydi. Turkiy hoqonlik xususidagi ma‘lumotlar yetarli bo‘lsa-da, lekin ularning ko‘pchiligi bir-biriga qarama-qarshi va aniq ma‘lumotlar bermaydi. Birinchi navbatda VII-VIII asrlarda to‘plangan manbalar ancha qimmatlidir. Bular epigrafik yodgorliklar-

O'rxun-Yenisey runiy yozuvlari, Xitoyning "Tan xonadoni tarixi" (VII-IX asrlar) tarixiy manbasi, VI-asr oxirlarida yashagan vizantiyalik tarixchilar Menandr Protektor, Feofan Vizantiyskiy, suriyalik tarixchi Ionna Yefesskiylarning tarixiy asarlaridir. Shuningdek, bu to'g'risidagi ma'lumotlar arab tarixchilari at-Tabariy, Denovariy (IX-X asr) o'lkamiz fuzalolaridan Abu Rayhon Beruniy, Narshaxiy (X asr) va boshqalar asarlarida ham uchraydi.

"Alpomish", "Go'ro'g'li", "Manas", "Dada Qo'rqut" kabi umumturkiy xalq dostonlari, o'rta asrlardagi Mahmud Qoshg'ariy, Axmad Yugnakiy, Yusuf Xos Hojib va boshqalar asarlarida turkiy madaniyat, adabiyot, tarix to'g'risida turli qimmatli ma'lumotlar keltiriladi. 1999-yili Alpomishning 1000 yilligi Respublikamizda keng nishonlanib, Termizda qahramon Alpomishga mahobatli haykal ham o'rnatildi.

Xitoy manbalari, turkiylar "Xunn" nomi ostida eramizning 92-yilida Oltoy etaklariga kelib o'rnamashganligi va bu yerdagi jujanlardan ruxsat olib ular uchun temir qazib chiqarishni boshlaganliklari haqida ma'lumot beradi. Bu urug' Ashina urug'i nomi bilan avval boshda atalib kelingan. Xitoylar Ashin qabilasini "Tu-kyu" deb xitoycha "Ashina" deb ham yuritganlar. P. Pelyo bu so'zni "Turkyut" (ya'ni turkiylar) deb izohlagan. Turk" atamasi kuchli, baquvvat degan ma'noni anglatgan. Ashina xitoycha "bo'ri" degan ma'noni anglatib, bo'ri xitoyliklarda "shono", "gino" deb ham yuritilgan. "A" qo'shimchasi esa Xitoyda hurmat belgisi hisoblangan. Boshqa bir fikrga ko'ra, turk so'zi Oltoy tog'lariga nisbat qilib olinib "dubulg'a" degan ma'noni bergan deb ham aytiladi. Avval bir urug'ga berilgan "turk" atamasi keyinchalik ularga yaqin turgan barcha qabila-urug'larga ham umumiy nom sifatida ishlatilib ketilgan.

Ashina urug'idan bo'lgan Asan (Asyan), Shad, Tuu (460-545) lar turkiy qabilalar ittifoqiga asos soladilar. Tuuning o'g'li Bumin (bu turkcha nomi, xitoycha Tumin) o'ziga tele qabilasini bo'ysundiradi. Endilikda ancha mustahkamlangan bu qabilalar ittifoqi o'zlari qaram bo'lib turgan jujanlardan xalos bo'lish yo'lini qidirishadi. 545-yil G'arbiy Vey imperatori Van-di Ashin urug'i boshlig'i Buminga do'stona munosabat o'rnatish uchun elchi yuboradi. G'arbiy

Vey davlatining asoschilari asli turkiy qabilalardan bo'lib (386-558) Xitoyning shimolida o'z davlatlarini barpo qilib, butunlay xitoylashib ketgan edilar. Turkiylar ularni To'ba yoki Tabg'ach davlati deb yuritganlar. Manbalarda berilishicha, Bumin Vey davlati bilan ittifoqdosh bo'lib, ulardan jujanlarga qarshi kurashda yordam olishi mumkinligiga umid qiladi. Bumin jujan xoni Aynag'ayga uning qiziga uylanmoqligi to'g'risida sovchi yuboradi. Bu taklif Bumin tomonidan ataylab nizo chiqishi uchun qilingan bo'lib, Aynag'ay Buminga: "Ha, temir erituvchim, menga bunday taklifni kiritishga qanday jur'at etding?" deb javob beradi. Bu holat ikki o'rtada jang boshlanishiga bir bahona bo'ldi. Bumin shu javobdan so'ng kurashni boshlab yuboradi va 551-yili Markaziy Osiyodagi eng kuchli bo'lgan jujanlar xonini mag'lub etadi. O'sha yili Bumin yangi davlat-**Turkiy hoqonlikka (551-744)** asos soladi.

Bumin Ili daryosi bo'yida hukmdor deb e'lon qilinib, "Ilixon" degan unvonni oladi. Turkiylar hukmdori o'zini hoqon (turkcha-qag'an) deb yurita boshlaydi. Oltoydagi O'tukan shahri turkiy hoqonlikning poytaxti qilib belgilanadi. Bumin o'z ukasi Istemiga (Istemi-turkcha, Sedimi-xitoycha, Sinjibu-arabcha, Stembi-xagah yunoncha) birinchi sarkarda, davlatning birinchi amaldori unvoniga to'g'ri keluvchi "Yabg'u" (bahodir) unvonini berib, u bilan birgalikda o'z davlatini kengaytirish payiga tushdi. Istemi ko'proq g'arbiy yo'nalishga boshchilik qilib tez orada Sharqiy Turkistondagi nushibi, turkash, duli qabilalarini o'ziga bo'ysundiradi. 552 yilning oxirida Bumin hoqon vafot etdi. Shundan so'ng taxtga Dyangu Qora Issiq xon o'tiradi. U jujanlarni qayta bosh ko'targanligiga qarshi kurashib, natijada ularning rahbari Din o'z qo'shini bilan tor-mor keltiriladi. Tez orada Qora Issiq xon ham vafot etadi. Shundan so'ng uning ukasi Muqan xon "Kushu" unvoni bilan (554-572) taxtga o'tiradi. Muqan xon hukmronligi davri Turkiy hoqonlikni eng qudratli pallaga olib kirdi. 554-yil Muqan Sharqqa yurish qilib Uzoq Sharq o'lkalarini o'ziga bo'ysundirdi va Tinch okean qirg'oqlariga chiqadi. Shundan so'ng u O'rxun, To'g'la, Selenga daryolari bo'ylaridagi qabilalarni, Yenisey daryosi bo'ylaridagi qirg'izlarni, Baykal atroflaridagi uyg'urlarni o'ziga bo'ysundiradi.

Muqan hoqon Eftalitlar davlatini tugatish uchun 554 yil Eron shohi Xusrav I Anushervonga elchi jo'natadi. Firdavsiyning yozishicha, Eftalitlar hukmdori Gatifar turkiylar va Eron o'rtasidagi ittifoqchilik yuzaga kelmasligi uchun elchilarni yo'lda o'ldiradi. Faqatgina bir kishi hoqon huzuriga yetib boradi xolos. Eron ittifoqqa rozi bo'ladi. Muqan hoqon ittifoqchilik iplarini mustahkamlash maqsadida Istemi yabg'uning qizi Asna bekani Xusrav I Anushervonga turmushga beradi. 555-yildayoq Istemi Orol dengizigacha bo'lgan yerlarni egallagan edi. Shuni ta'kidlash kerakki, bu oddiy istilo bo'lmay balki, yangi turkiy qabilalarning Sharqiy Turkiston shimoli va O'rta Osiyoning sharqidagi ulkan yerlarga kelib o'rnamashishi edi. Kultegin bitigida qayd etilishicha "ular (ya'ni, Istemi va Muqanxon) o'z xalqlarini Temir Qopqagacha joylashtirdilar" (So'g'd va Baqtriya o'rtasidagi chegarada joylashgan Temir darvoza, hozirgi Boysun tumani hududida).

558-yili turkiylar Ural va Volga bo'ylarini zabt etib Shimoliy Kavkazdagi ko'chmanchi ovarlar bilan to'qnashadi. Turkiylar eftalitlar va ovarlarga qarshi kurashishda Vizantiya va Eron bilan do'stona aloqani mustahkamlashga harakat qila boshlaydi. Vaziyatdan foydalangan Eron eftalitlardan Tohariston, Chag'oniyon, Kobul atrofidagi yerlarni tortib oldi. Ovarlarga qarshi harakatda turkiylar, ularga yordam berib turgan Vizantiyani bu yo'ldan qaytarmoqlikka harakat qilishadi. Shu maqsadda Turkiy hoqonlik 563-yil Vizantiyaga nushibi qabilasi rahbari Esxilni elchi qilibjo'natadi.

563-yildan eftalidlarga qarshi ikki tomonlama, shimoldan turkiylar, janubdan sosoniylar hujumi boshlanadi. Turkiylar Choch vodiysiga bostirib kiradilar va tez orada ular tomonidan Samarqand, Kesh, Naxshab egallanadi. Eftalitlar Xuttalon, Termiz, Balx, Amul, Zamm shaharlaridan yordam olib, Buxoro yaqinida katta jangatayyorgarlik ko'radilar. Sakkiz kunlik shiddatli jangda eftalitlar turkiylardan yengiladilar. Tabariyning yozishicha, Vars deb yuritilgan eftalitlar shohini Istemi o'ldiradi va butun boyliklarini o'z qo'liga oladi. Eftalitlar bilan kurash taxminan 563-567 yillar oralig'ida kechadi.

Ittifoqchilarning har biri tezlik bilan harakat qilib, iloji boricha eftalitlarning yerlarini ko'proq o'z qo'llariga olishga harakat qiladilar. Amudaryoning janubiy sohiligacha bo'lgan yerlar Eron, uning shimoliy sohillaridan Kaspiygacha bo'lgan yerlar turkiylar qo'lga o'tadi. Birmuncha vaqt eftalitlarning qolgan qutgani Zarafshon vohasida yashab turkiylarga soliq to'lab turadi. Eron turkiylar qo'lga ko'pgina muhim ahamiyatga ega bo'lgan hududlar o'tib qolganligidan o'z noroziligini bildiradi.

Istemi yabg'u Eron bilan munosabatlar keskinlashib ketsa, uning oldini olish maqsadida Vizantiya bilan yaqinlashish siyosatini qo'llamoqchi bo'ladi. 568-yil Maniakh boshchiligidagi elchilar guruhi Vizantiyaga jo'nab ketdi. Ular Kavkaz orqali Konstantinopolga yetib keldilar. Maniakh katta tantana bilan qabul qilinib, imperator Yustin II ga sovg'a salomlar va hoqonning nomasini topshirdi. (Vizantiyaliklar bu nomani skiflar yorlig'i deb atashgan). Imperator turkiylar bilan harbiy-siyosiy, savdo shartnomasiga kelishib oldi. Yustin II javob tarzida Zemarx boshchiligidagi elchilarini ularga qo'shib jo'natdi. Zemarx O'tintog' etagidagi hoqon o'rdasida qabul qilinadi. O'zaro suhbatdan so'ng Vizantiya bilan ipak savdosi, Eronga qarshi kurashish xususida kelishibolindi. Keyinchalik boshqa bir qator elchilar guruhi ham almashindi. Garchi ovarlar tufayli Vizantiya bilan munosabatlar bir oz yomonlashsada, lekin Vizantiya va hazarlar turkiylarga Eronga qarshi harakatlarda ko'mak berib turadilar. Eronga o'zaro munosabatlarni keskinlashtirmaslik borasida yuborilgan ikki marotaba elchilar tashrifi o'z natijasini bermadi.

Tinch okeani sohilidan to Qora dengiz sohiligacha cho'zilgan bu ulkan davlat Eronga qarshi harbiy harakatlarni boshlab yuboradi. Istemi Xisrav I Ashushervon qo'shinlarini tor-mor qilib Eronning shimoliga bostirib kiradi. Turkiylar Eftalitlar yerlarining Eronga o'tib qolgan yerlarini yana o'z qo'lga qaytarib oladilar. Eron tinchlik sulhiga kelishib har yili 40.000 Vizantiya tillasi to'lash majburiyatini oladi. Undan so'ng Eron bilan Vizantiya o'rtasida ham urush boshlanib ketib, sosoniylar davlati juda nochor ahvolga tushib qoladi.

576-yili Muqan hoqon va Istemi yabg'ularni vafotidan so'ng Turkiy hoqonlikning ta'siri ancha zayıflasha boshlaydi. Eron sarkardasi Bahrom Chubin turkiylarning Chur Bag'a hoqon qo'mondonligidagi 300.000 kishilik qo'shinini tor-mor keltiradi. Chur Bag'a jangda halok bo'ldi. Bahrom Chubin Buxoro yaqinidagi Poykend shahriga bostirib kirib, hoqonning o'g'li Barmuda Teginni asirga oladi va hoqon xazinasini Eron shohiga yuboradi.

Muqan hoqon vafotidan (576 y.) so'ng taxtga uning ukasi Arslon To'ba o'tirdi. Arslon To'ba qo'lida 8 ta viloyat jam etilgan bo'lib, o'z vaqtida ular o'zaro bir-birlari bilan chiqisha olmas edilar. VI asrning ikkinchi yarmiga kelib turkiy hoqonlari va shahzodalari o'rtasida toj-taxt uchun goh oshkora goh zimdan kurash ketayotgan, iqtisodiy tanazzul boshlanayotgan bir paytda turkiy shahzoda Abruy boshchiligidagi xalq harakati bo'lib o'tdi. Abro'y harakati to'g'risida to'liq ma'lumotlar saqlanib qolmagan. Xususan, Abdurahmon Muhammad Nishopuriyning (XI asr) "Xazinat-al-ulum" asaridagi bu masalaga bag'ishlangan parcha Narshaxiyning "Tarixi Buxoro" asariga kiritilgan. Uning ma'lumotiga ko'ra Abro'yning qarorgohi Poykentda bo'lib, u boy zodagonlar va savdogarlar ustidan qattiq nazorat o'rnatgan. Bunga chiday olmagan zodagonlar Turkiston tomonga yo'l olishgan. Abro'y atrofida esa qashshoq dehqonlar guruhlarini yig'ilisha borgan.

Zodagonlar Turkiston tomonda o'z rahbarlari Hamuk nomiga bag'ishlab Hamukat shahrini quradilar va turkiy hoqon Qora Churindan yordam so'raydilar. Hoqon o'z o'g'li Shiri-Kishvarni isyonchilar ustiga yuborib, bu harakatni shavqatsiz bostiradi. Shiri-Kishvar Abro'yni tutib uni qizil asalari to'la qopga tiqib o'ldirishni buyuradi va o'zi Buxoro vohasining noibi bo'lib, qochib ketgan zodagonlarni orqaga qaytarish choralarini ko'rgan.

O'zaro muttasil urushlar, taxt talashishlar mamlakatni parchalanib ketish, ma'naviy-iqtisodiy inqiroz holatiga olib keldi. Qora Churin qarib qolgan vaqtida taxminan 600-yillarga kelib o'zini "hoqon" deb e'lon qiladi. Qora Churin Bugu hoqon (Qahramon hoqon) degan nomni olgan edi. Hoqonlikdagi og'ir vaziyatdan foydalangan Xitoy imperatori ichki nizolar keltirib chiqarishga harakat qildi. Turkiy sarkardalaridan biri Jangar xitoyliklarga sotilib, o'z safdoshlari bilan

hoqonga suiqasd uyushtirdi. Lekin maqsadini amalga oshirolmay 5 ta kishisi bilan zo'rg'a Xitoy imperatori huzuriga qochib o'tdi. Imperator Yan Szyan uni yaxshi kutib olib, hoqonlikka da'vogar shaxs deb e'lon qildi.

Hoqonlik ichidagi nizo-fitnalar Jangar kishilari tomonidan avj oldirilib vaziyat oxir oqibatda hoqonga qarshi aholi isyonigacha yetib keldi. Qora Churin 603 yilda Tibetga chekingan vaqtida Jangar kishilari tomonidan o'ldirildi. Jangar hoqonlikning Sharqiy qismini o'z qo'liga olib, butunlay Xitoyning ta'sir doirasidagi kishiga aylandi. Hoqonlikning sharqiy qismi o'z mustaqilligini shu tariqa yo'qotdi. 582-603 yillardagi o'zaro urushlardan so'ng 603-yil hoqonlik to'la mustaqil 2 qismga: Sharqiy va G'arbiy qismlarga ajraldi. Yettisuv, Chu vodiysi, Volga, Kubanning quyi qismi, Irtish, Ishim daryolari bo'yidagi yerlar, O'rta Osiyoning kichik yarim mustaqil davlatlari G'arbiy hoqonlik tarkibiga kirar edi.

G'arbiy hoqonlikdagi yozgi qarorgoh Isfijob yaqinidagi Mingbuloqda, qishkisi Suyob shahrida edi. Suyobning sharqiy tomonida dulu qabilasining besh o'q bo'dul ittifoqi, g'arbida esa nushibi qabilasining besh, o'q el ittifoqining yerlari joylashgan edi. G'arbiy hoqonlik ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy jihatdan Sharqiy hoqonlikdan mutlaqo ajralib turar edi. Sharqiy hoqonlikdagi aholi asosan ko'chmanchi chorvadorlardan iborat bo'lsa, g'arbiy hoqonlik aholisining katta qismi esa o'troq dehqonchilik, hunarmandchilik va savdo-sotiq bilan mashg'ul edi. Yer egaligi munosabatlari rivojlanayotgan G'arbiy hoqonlikning ijtimoiy tarkibi ham, siyosiy boshqaruvi ham ancha-muncha murakkab edi. Yarim asrlik hukmronlik jarayonida turkiy aholining bir qismi o'troqlashadi, qolganlari yerli chorvadorlar bilan qorishib ketishadi. O'troq hayotning an'anaviy ma'muriy udumlari ta'sirida boshqaruv tartiblari asta-sekin o'zgarib, turkiylarning ijtimoiy va siyosiy mavqei mustahkamlanib boradi. Turkiy aholi siyosiy hayotda faol qatnashib, O'rta Osiyo o'sha davr siyosatining hamma jabhalarida teng qatnasha boshlaydilar.

Hoqon Sheguy vafotidan keyin (618 y.) hokimiyatga kelgan Hoqon To'n yabg'u (To'n shoh) davrida G'arbiy hoqonlik yana kuchayadi. Uning chegaralari Oltoydan to Hind daryosi bo'yigacha cho'zilib ketdi. Uning qo'lidagi ulkan

hokimiyatni boshqaruv tartiblari isloh etildi. Mahalliy sulolalar hokimlari bilan bevosita bogʻlanish, ularning ustidan nazoratni kuchaytirish maqsadida mahalliy hukmdorlarga “yabgʻu” unvonlari beriladi. Ular oʻz vaqtida hoqonning noiblariga aylanadilar. Turkiylar “Tudanlar” deb yuritilgan oʻz vakillarini yarim mustaqil hokimliklarga yuborib, siyosiy nazorat va boj soligʻini izga tushirish ishlarini amalga oshirdilar. Shu bilan birga hoqon diplomatik tarzda ham ish tutar edi. Masalan u Samarqand hokimi va Qashgʻar hokimlari bilan quda-andachilik ipini bogʻlab, ular bilan munosabatni yaxshiladi.

Toʻn yabgʻu hoqon davrida Oʻrta Osiyoning baʼzi boʻysunmas hisoblangan oʻlkalari (xususan, Tohariston) ham egallanib, Sosoniylar Oʻrta Osiyoning janubi va hozirgi Afgʻoniston yerlaridan siqib chiqarildi. Xitoy va boshqa davlatlar bilan aloqalar tiklandi. Toʻn yabgʻu hoqon vafotidan (630-y.) soʻng dulu va nushibi (dulu qabilasi ittifoqi Yettisuvda, nushibi qabilasi ittifoqi gʻarbiy Jungʻoriyada edi.) qabilalari oʻrtasida hokimiyat uchun kurash boshlanib, ketdi. Hoqonlik zaiflashib, bir necha qismlarga boʻlinib ketdi. Vaziyatdan foydalangan Xitoyning Tan imperiyasi qoʻshinlari 657-659 yillarda Yettisuvga bostirib kirdilar.

Xitoy bosqinchilariga qarshi ozodlik kurashlari boshlanib ketdi. Faqatgina VII asrning oxirlariga borib hoqonlik oʻz mustaqilligini tiklab, Xitoy gumashtasi boʻlgan Xusrav Boʻrishodni mamlakatdan quvib chiqaradi va Toshkent vohasidan Turfongacha dulu qabila ittifoqidagi turkashlar hukmronligi oʻrnatiladi.

Butun saltanat ustidan oliy hukmronlikni hoqon olib borgan. Bu lavozim merosiy boʻlgan. Xitoy manbalariga koʻra ota doimo oʻz oʻgʻliga taxtni qoldiravermay, balki undan kattaroq turgan qarindoshlarini qoldirishi lozim boʻlgan. Bundan tashqari, shunday hollar ham boʻlganki, taxt sohibini "urugʻ oqsoqollari" tayinlagan. Xitoy manbalariga koʻra, turkiylar xonni taxtga oʻtqazishda maxsus marosim oʻtkazganlar, yaʼni, amaldorlar boʻlajak xonni kigizga oʻtkazib, quyosh yurishi boʻylab 9 marotaba aylantirganlar, ishtirokchilar ularni qutlab turgan. Keyin xonni otga oʻtkazib, boʻyniga ipak mato bogʻlaganlar. Keyin undan soʻraganlar: “Siz necha yil xon boʻlmoqchisiz?. U necha yil xon boʻlishini aytgan, shu muddat tugagandan keyin taxtdan ketgan. Hoqondan

keyingi shaxs **Yabg'u** (bahodir) davlatdagi birinchi amaldor (vazir) vazifasida bo'lgan. (Masalan Istemi yabg'u). Ammo yabg'u taxtga merosxo'rlik qila olmas edi. Taxt merosxo'ri tegin (shahzoda) deb yuritilgan. **Tegin** taxtga da'vogar shaxs bo'lgan. **Shod** unvoni tuman va viloyat hokimligidagi shahzodalarga berilgan. Shahzodalar bilan qondosh bo'lmasa, unday odamga shod unvoni berilmagan. Xitoy manbalarining birida shunday deyiladi: "Oliy martabalar orasida eng ulug'i Shexu (Jabg'u, Yabg'u), keyin Dele (Tegin), uchinchi esa Silifa, to'rtinchisi Tumaofa, (qolgan) kichiqroq darajasidagi mansablarda 20 kishi band; ularning hammalari mansablari merosiydir... qo'riqchilarni esa Fuli (ya'ni bo'ri) deb ataydilar".

Tudun unvoni hukmdorning joylaridagi noibi (nazoratchisi)ga berilgan. Ular mahalliy hokimlar siyosatini, boj-soliq ishlarini nazorat qilganlar. **Shod** unvonidagi kishi hukmdorning o'ng tomonidan joy olgan.

Chorvador turkiy aholida urug'-jamoachilik an'analari nihoyatda kuchli bo'lib, qabila va urug' jamoalarining negizi katta oilalardan iborat edi. Bunday oilalarda uy qullari ham mavjud bolar edi. Qullarning ko'payishi bilan tabaqalanish munosabatlari tarkib topa boshlagan. Lekin qulchilik ijtimoiy hayotga keng kirib kelmadi. Ko'pincha janglarda ayollar qul qilib olib ketilar edi. Lekin qul ayollardan og'ir ishlarda foydalanilmay, balki uy-ro'zg'or ishlarida ishlatilinar edi. Qul erkakmi, ayolmi bari bir, imkon topishi bilan qochib ketavergan. Qochgan qul ta'qib qilinmagan. Ular uchun hech kim tovon to'lamagan.

Turkiy ko'chmanchilarning asosiy qismi kambag'al chorvador va ovchilardan iborat edi. Bunday xalq ommasini **bo'dun** yoki **qora bo'dun** deb atashgan. Mamlakat bo'dunlar yashaydigan **ellarga** bo'lingan. Hoqonlikning markaziy boshqaruv tizimi asosan yirik siyosiy-davlat tadbirlari (saltanat osoyishtaligini saqlash, davlat hududini kengaytirish, soliq tizimi, ichki va tashqi savdo, diplomatik munosabatlar va hakoza) bilan mashg'ul bo'lib joylardagi mahalliy ishlarga ma'lum darajada erkinlikkayo'lqo'yilgan. Shuning uchun ham Farg'ona, So'g'd, Shosh, Tohariston, Xorazm va boshqa joylarda boshqaruv ishi asosan mahalliy sulolalar qo'lida bo'lgan. Xitoy manbalariga ko'ra So'g'dda kelib

chiqishi asli yuechjilardan bo‘lmish Kan sulolasining mavqei kuchli bo‘lib, So‘g‘d hukmdori **ixshid** unvoniga, lobe hokimliklar ham o‘z unvonlariga ega bo‘lganlar. (Masalan, Kesh hukmdori **ixrid** unvoniga ega bo‘lgan)

Qonunchilik, ijtimoiy hayotda u yoki bu masalalarni hal etish uchun “turkiy tuzuklari” yoki “Turolari” bo‘lgan. Xitoy tarixchisi shunday tuzuklardan biri So‘g‘ddagi ibodatxonalardan birida saqlanishini yozadi. Qonunlarga ko‘ra, eng og‘ir gunoh qilgan odam urug‘-aymog‘i bilan yo‘q qilib yuborilgan. Qolgan jazolar o‘lim va turli miqdordagi tovon to‘lash usullari bo‘lgan. (Masalan birovni o‘ldirsa, buzuqchilik qilsa, ot o‘g‘irlasa, o‘lim jazosi, birovning mol-mulkini o‘g‘irlasa yoki kishiga lat yetkazsa tovon to‘lagan va hakoza).

Dehqonlar mavjud suv resurslari hamda lalmikor yerlar imkoniyatlaridan foydalanib asosan don ekinlari hamda, qovun, tarvuz, beda, uzumchilik, paxtachilik sohalaridan yuqori hosil yetishtirganlar. Mevali daraxtlardan bog‘-rog‘lar yetishtirishga alohida ahamiyat berilgan, manba tili bilan aytganda “mevali daraxtlar savlat to‘kib turgan”. Chunonchi, ajnabiylarni Samarqandning “tilla shaftolisi” lol qoldirgani ma’lum.

Shahar aholisi asosan hunarmandchilik va savdo-sotiq bilan mashg‘ul edi. Dehqonchilik va konchilikdagi taraqqiyot ko‘lami va sifati o‘zidan keyingi uch tarmoq-hunarmanchilik, qurilish, savdo-sotiq ravnaqi uchun katta turtki bo‘ladi. Shuning uchun bu vaqtda metallsozlik, zargarlik, kulolchilik, duradgorlik, qurolsozlik, to‘qimachilik, shishasozlik, konchilik keng rivoj topgan. Hunarmandchilik rivojiga turkiy aholi katta ta’sir ko‘rsatdilar. Chunki ularda qadimdan ko‘pchilik kasb-hunarlar juda rivojlangan edi. Turkiylar sarrojlilik, metall qazib olish va undan qurol-yarog‘ yasashda ayniqsa mohir edilar. Turkiylar yasagan qurol-yarog‘, zebu-ziynat buyumlari xilma-xilligi va pishiqligi bilan ajralib turgan. Konchilik faoliyati ham shu paytda ancha rivojlangan. O‘tin, temir, kumush, qo‘rg‘oshin, mis, margimush, tuzning bir necha xili, qimmatbaho toshlar, turli ma’danlar So‘g‘d, Shosh, Farg‘ona, Qashg‘ar, Tohariston kabi viloyatlarda qazib olishganligi manbalarda aniq ko‘rsatilgan.

Turkiy hoqonlik ulkan hudud ichida zarur tinchlikni ta'minlaganligi natijasida "Buyuk ipak yo'li" samarali ishlashda davom etdi. O'lkaning asosiy savdo hamkorlari Eron, Xitoy, Hindiston va Vizantiya edi. Bu mamlakatlarga to'qimachilik, ipakchilik mahsulotlari, qimmatbaho toshlar va ulardan ishlangan buyumlar, taqinchoqlar, dorivorlar, nasldor arg'umoqlar, bir necha xil tuz, sharob, bog'dorchilik mahsulotlari, qazilma boylik va hakazolar olib borilgan. So'g'd savdogarlarining ayniqsa mavqeyi kuchli bo'lgan. Shu ma'noda Xitoylik muallifning quyidagi guvohligi e'tiborga sazovordir: "(so'g'diyonalik) erkaklar yigirma yoshga to'lishlari bilan qo'shni mamlakatga oshiqadilar va (savdo-sotiqda)qaerda (qulaylik) va manfaat bo'lsa (albatta) u yerga qadam ranjida etadilar". O'rta Osiyoning shu davrdagi Marv, Poykant Buxoro, Samarqand, Choch, Isfijob, Suyob kabi shaharlari savdo-sotiqning markazlari edi.

Xitoy bilan savdo munosabatlari ayniqsa rivojlanib, 627-647 yillar mobaynida Xitoyga 9 marotaba savdo elchilari yuborildi. O'rta Osiyoda shu paytda 15 taga yaqin mayda davlatlar bo'lib, Buxoroda buxorxudotlar., Xorazmda xorazmshohlar, Choch va Iloqda bo'dun va dexqonlar, Farg'onada ixshidlar hukmronlik qilishgan. Ularning hammasi Turkiy hoqonlikka qaram bo'lsa-da, amalda yarim mustaqil edilar.

Turkiylarning dini haqida "Vey-shu" va "Suy-shu" Xitoy yilnomalarida qayd etilgan. Unda turkiylar dini, odatlari haqida shunday ma'lumotlar bor: 1) hoqon qarorgohiga Sharq tomonidan kiritilgan, bu bilan kun chiqish tarafga hurmat ma'nosi ifodalangan, ayni paytda quyoshga sig'inishni ham bildirgan. 2) har yili hoqon o'z amaldorlari bilan maxsus g'orga borib, ota-bobolari ruhiga qurbontik keltirgan. 3) har 5-marotaba oy chiqishida va o'sha oyning o'rtasida hoqon yaqinlarini yig'ib, daryo bo'yiga borgan, osmon ruhi (tangri)ga qurbonlik keltirganlar. Qabilalar o'rtasida ham turli xudolarga e'tiqod qilish bo'lgan. Tangri (osmon ruhi) barcha qabilalar uchun yagona asosiy xudo bo'lgan. Unga doimiy qurbonliklar keltirganlar. Ular ruh abadiyligi, narigi dunyo borligiga ishonganlar. Biror kishi qazo qilsa uning yoniga boshqa kishilar, buyumlarni ham qo'shib ko'mganlar. Masalan, 576-yli Istemi-yabg'u vafot etganida u bilan birga 4 ta

harbiy asir o'ldirilib ko'milgan. Muqanxon vafot etganida unga oxiratda xizmat qilish uchun 20.000 kishi o'ldirilib, birga ko'mligan. Qiyomat kunini turkiylar "Qoldirilgan kun" deb ataganlar. Turkiylar qabr toshlari, ya'ni bitiktoshlar yoniga odamlarning tosh haykalchalarini qo'yishgan. Ular "balballar" deyilgan. Bu balballar o'lgan odamning ruhiga bag'ishlangan yodgorlikdir. Shamanizm o'sha davrda turkiylarning asosiy dini bo'lib, keyinchalik ular ichida buddizm, xristianlik va boshqa dinlar ham tarqalgan. Tosh bitiklarda o'lgan odamga madhiyadan tashqari, ko'plab Tarixiy hodisa va voqealar ham bitilgan. Bunday bitiklar ichida eng ma'lumlari Kul tigin bitigtoshi, Bilga hoqon bitigtoshi, To'nyuquq bitiktoshi va boshqalar mashhurdir. Bular birgalikda O'rxun-Enisey yozuvlari deb ataladi. Shuningdek qog'ozga yozilib, Xitoydan topilgan 104 satrlik "Ta'birnoma" asarida ham turkiylar hayotining sahifalari yoritilgan.

Xulosa

O'zbekistonda boshqaruv tizimining shakllanish tarixini o'rganish mamlakatdagi zamonaviy siyosiy va ijtimoiy jarayonlarni tushunish uchun katta ahamiyatga ega. Davlat boshqaruvi tizimining tarixiy rivojlanish bosqichlarini tahlil qilish uning shakllanishining qonuniyatlari va xususiyatlarini aniqlash, shuningdek, shakllanishiga ta'sir ko'rsatgan omillarni aniqlash imkonini beradi.

Sivilizatsiya nafaqat insoniyat madaniyatining rivoji, balki davlatchilik taraqqiyoti hamdir. Turli xalqlar o'z davlatchiligining shakllanish bosqichini ijtimoiy-iqtisodiy va tarixiy-madaniy vaziyatlarga bog'liq xolda turli tarixiy davrlarda bosib o'tdilar. Ammo, shunisi ma'lumki, ilk davlatlar ishlab chiqaruvchi xo'jalik: dehqonchilik va chorvachilik paydo bo'lgan joylardagina shakllangan. Ming yillar davomida faqat termachilik, baliqchilik va ovchilik hisobiga yashab kelgan, dehqonchilikni bilmagan ko'pgina qabilalar va elatlar davlatchilik bosqichiga ko'tarila olmagan. O'zbekiston hududida dehqonchilik miloddan avvalgi III ming yillik so'ngida paydo bo'lgan va miloddan avvalgi II ming yillikda keng tarqalgan. Huddi shu davrda o'lkamizda doimiy o'troq makonlar paydo bo'lgan. Bu, o'z-o'zidan, yuqorida yuqorida ta'kidlaganimizdek, o'zbek xalqi ajdodlarining qadimgi dehqonchilik madaniyati rivojlanishi asosida ilk davlatchilik jarayoni boshlanishiga olib keldi.

Qadimgi davlatlar o'z rivojlanish bosqichlarida, turli xususiyatlar va tarixiy qonuniyatlarga ega bo'lgan. Dastavval, ilk davlatlar xo'jalikning ishlab chiqaruvchi shakllari – dehqonchilik va chorvachilik qaerda oldin rivoj topgan bo'lsa, o'sha yerda vujudga keldi.

O'zbekiston hududida ilk davlatchilik tizimiga o'tish bronza davrida boshlanadi. Surxondaryodagi O'lonbuloqsoy – Sherobod qadimiy ziroatchilik vohasi yodgorliklarning o'rganilishi (Sopolli, Jarqo'ton) dehqonchilik, me'morchilik va hunarmandchilikning yuksak taraqqiy darajasini ochib berdi. Jarqo'tonda alohida joylashgan ibodatxona Qadimgi Sharqdagi sajdagohlar singari, e'tiqodga oid vazifasidan tashqari, ibodat–xo'jalik majmuasi mohiyatiga ega

bo'lgan. Bronza davrida ibodat merosimlarini tashkillashtiruvchi va ijro etuvchi mahsus ijtimoiy guruhlar – kohinlar paydo bo'ladi.

Mil.avv. IX–VIII asrlarda dasht chorvador qabilalari ko'chib yuradigan chorvachilik shakliga o'tadilar. Ko'chmanchilar qurol–yarog'ni rivojlantirish, o'q otish va suvoriy jang qilish sohasida katta yutuqlarga erishib, o'troq dehqonchilik aholi uchun juda xavfli kuchga aylanadilar. Bu davrda suvoriy–jangchi va harbiy yo'l boshlovchilarning mavqei oshadi. Shu tariqa “harbiy demokratiya” tamoyillariga asoslangan qo'chmanchi qabilalarning uyushmalari vujudga keladi. Bunga o'xshash uyushmaning markazi Quyi va O'rta Sirdaryo havzasi dashtlarida joylashgan. Mil.avv.VII–VI asrlarda Sharqiy Kaspiy bo'yi, Janubiy va Sharqiy Orolbo'yi oralig'i hududlarida joylashgan sak–massaget qabilalarning harbiy uyushmasi paydo bo'ladi.

O'zbekiston hududlaridagi eng qadimgi davlatlar haqida zardo'shtiylarning muqaddas diniy kitobi «Avesto», ahmoniylarning mixxat yozuvlari (Bexistun, Naqshi Rostam, Suza, Persepol) yunon-rim tarixchilarining (Gerodot, Gekatey, Kursiy Ruf, Arrian, Strabon va boshqalar) ma'lumotlar beradi. So'nggi yillarda qadimgi Baqtriya, So'g'diyona va Xorazm hududlarida olib borilgan arxeologik tadqiqotlar ko'p hollarda yozma manbalar ma'lumotlarini tasdiqlaydi.

Milodiy IV-VI asrlar Turon zaminida ko'chmanchi qabilalarning kirib kelishi, qabilalar ittifoqi (konfederatsiya)ning yuzaga kelishi-yangi siyosiy kuchlarning paydo bo'lishi bilan izohlanadi.

Фойдаланилган манба ва адабиётлар рўйхати

I. Ўзбекистон Республикаси Президенти асарлари, ҳукумат қарорлари ва фармонлари.

1. Мирзиёев Ш.М. Эркин ва фаровон, демократик Ўзбекистон давлатини биргаликда барпо этамиз. - Тошкент, Ўзбекистон, 2016. – 56 б.
2. Мирзиёев Ш.М. Буюк келажагимизни мард ва олижаноб халқимиз билан бирга қурамиз. - Тошкент, Ўзбекистон, 2017. –488 б.
3. Каримов И.А. Тарихий хотирасиз келажак йўқ. –Тошкент: Шарқ, 1998. –32 б.
4. Каримов И.А. Юксак маънавият–енгилмас куч. –Тошкент: Маънавият, 2008. –176 б.
5. “Моддий маданий мерос объектларини муҳофаза қилиш соҳасидаги фаолиятни тубдан такомиллаштириш чора тадбирлари тўғрисида”ги 2018 йил 19 декабрдаги ПҚ-4068 сонли қарори.

II. Илмий адабиётлар

1. Абдуллаев Ў.И. Ўрта Осиёда қадимги бошқарув ва илк давлатчилик тарихшунослиги. –Тошкент: Академия, 2009. –146 б.
2. Абдолниёзов Б., М.Ишоқов Авеста ва қадимги чорвачилик. –Тошкент. 2008. –91 б.
3. Аванесова Н.А. Новые работы на некрополе Бустон ВИ. //Ўзбекистонда археологик тадқиқотлар– 2002 йил. 3–сон. –Самарқанд. 2003. –С.20 –24 .
4. “Авесто” ва унинг инсоният тараққиётидаги тутган ўрни. –Тошкент– Урганч: Фан, 2001.
5. Азамат Зиё. Ўзбек давлатчилиги тарихи. —Ташкент: Шарқ, 2001. 368 б.
6. Аскарлов А. Древнеземледельческая культура эпохи бронзы юга Узбекистана. –Ташкент: Фан, 1977. – 231 с.
7. Аскарлов А., Албаум Л.И. Поселение Кучуктепа. – Ташкент: Фан, 1979. – 112 с.
8. Аскарлов А.А., Абдуллаев Б.Н. Джаркутан: монография. –Ташкент: Фан, 1983. – 120 с.

9. Аскарлов А. Ширинов Т.Ш. Ранняя городская культура эпохи бронзы на юге Средней Азии. –Самарканд: Инст. Археологии АН РУз. 1993. – 231 с.
10. Аскарлов А. Ўзбек халқининг келиб чиқиш тарихи. –Ташкент, 2015. – 667 б.
11. Бойс М. Зороастрийцы. Верования и обычаи. –М.:Наука, 1988.–303 с.
12. Болелов С.Б. Древний Хорезм на пороге государственности. Социально-экономический аспект. Доклад С.Б.Болелова на конференции в Музее Востока. –М.: 2014. www.archaeologysa.su.
13. Вайнберг Б.И. Этногеография Турана в древности. VII век до н.э.– VIII век н.э. –М.: Восточная литература, 1999. –360 с.
14. Дандамаев М.А. Луконин В.Г. Культура и экономика древнего Ирана. –М.: ГРВЛ. 1980. – 416 с.
15. Дандамаев М. А. Политическая история Ахеменидской державы. –М.:Наука, 1985. – 319 с.
16. Древняя Бактрия. Материалы Советско–Афганской археологической экспедиции 1969–1973 гг. –М.: Наука, 1976. –192 с.
17. Дяконов И.М. История Мидии от древнейших времен до конца IV века до н.э. I книга. –Баку: Нагыл Еви, 2012. –186 с.
18. Икромов Н.М. Қадимги Бақтрия кавийлиги. Тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати. – Термиз, 2020.
19. Итина М.А. Древнехорезмийские земледельцы. //История, археология и этнография Средней Азии. – М.: Наука, 1968.– С. 75–86
20. Исамиддинов М.Х., Сулейманов Р.Х. Еркурган (стратиграфия и периодизация). – Ташкент: Фан, 1984. –159.
21. Кузмина Е.Е. Откуда пришли индоарии? Материальная культура племен андроновской общности и происхождение индоиранцев. –М.: Восточная литература, 1994. –464 с.
22. Кузмина Е. Е. Арии – пут на юг. –М.: Летный сад. 2008. –556 с.

23. Литвинский Б.А., Пичикян И. Р. Тахти–Сангин – Каменное городище (раскопки 1976–1978 гг.) // Культура и искусство Древнего Хорезма. –М.: Наука, 1981. – С. 206–210.

Массон В.М. Древнеземледельческая культура Маргианы. МИА. № 73. –М.– Л.: Изд–во АН СССР, 1959. –216 с.

24. Массон В.М. Изучение эпохи раннего железа на территории Южного Туркменистана // Туркменистан в эпоху раннего железа. – Ашхабад: Ылым, 1984. –С. 5–12.

25. Массон В.М. Кушанские поселения и кушанская археология. (Некоторые результаты работ Бактрийской экспедиции в 1973–1975 гг.). //Бактрийские древности (Предварительные сообщения об археологических работах на юге Узбекистана). —Ленинград. Наука, 1976. –С.3–16.

26. Массон В.М. Формирование раннеклассовых обществ и вопросы типологии древних цивилизаций // Древний Восток и античный мир. –М.: МГУ, 1980. – С.12–40.

27. Матёкубов Х.Н. Ўзбек давлатчилигининг илк босқичларида қадимги Хоразм. т.ф.н. илм. даражасини олиш учун ёзилган диссертация.

–Тошкент. 2012.

28. Пянков И.В. “История Персии” Ктесия и среднеазиатские сатрапии ахеменидов в конце V–го века до нашей эры. // ВДИ. 1965. № 2. –С. 35-48.

29. Пянков И.В. К вопросу о маршруте похода Кира II на массагетов. //ВДИ, № III, 1964

30. Пянков И.В. Хорасмии Гекатея Милетского. //ВДИ. № II, 1972. –С.2-20.

31. Пянков И.В. Зороастр в истории места и времени. //ВДИ. 1996. № 3. – С.3-23.

32. Пянков И.В. Средняя Азия в известиях античного историка Ктесия (текст, перевод, примечания). –Душанбе:Дониш, 1975. –194 с.

33. Пянков И.В. Бактрия в античной традиции (Общие данные о стране: название и территория) – Душанбе: Дониш, 1982. – 62 с.

34. Рапопорт Ю.А. Хорезм в древности. /Рапопорт Ю.А., Незарик Е.Е., Левина Л. М. В низовьях Окса и Яксарта. Образы древнего Приаралья. –М.: Индрик, 2000. –С.15–68.

35. Рахманов Ш., Рапен К. Стратегический пограничный узел Железных ворот: меняющийся статус границ от греческих свидетельств до средневековых эпопей //Transoxiana: история и культура. –Ташкент, 2004. – С.150–153.

36. Ртвеладзе Э.В. Ксениппа-Паретака // Кавказ и Средняя Азия в древности и средневековье. –Л.: 1981. – 185 с.

37. Ртвеладзе Э.В. Пидаев Ш.Р. Древнебактрийская крепость Талашкантепе I.

// РА. №2. 1993. –С.133–147.

38. Ртвеладзе Э.В. Великий Шелковый путь: энциклопедический справочник. Древность и раннее средневековье. –Ташкент:Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 1999. 280 с.

39. Ртвеладзе Э.В., Саидов А.Х., Абдулаев Е.В. Қадимги Ўзбекистон цивилизацияси: давлатчилик ва ҳуқуқ тарихилан лавҳалар.

–Тошкент:Адолат, 2001. 416 б.

40. Ртвеладзе Э.В. Александр Македонский в Бактрии и Согдиане. – Ташкент: Медиа ланд, 2002. –93 с.

41. Ртвеладзе Э.В. Цивилизации, государства, культуры Центральной Азии.

–Ташкент: Университет мировой экономики и дипломатии, 2005. –288 с.

42. Сагдуллаев А.С., Хакимов З.А. Археологическое изучение городища Кызыл –тепе (по итогам работ 1973–1974 гг.) // Бактрийские древности.

–Ленинград: Наука, 1976. – С. 24–29.

43. Сагдуллаев А.С. О работах на поселении Бандыхан II и раскопках кургана № 1 могилника Сарыбанд // Труды Байсунской научной экспедиции.

Вып. 2. –Ташкент:Изд–во “SMI–Азия”, 2005. С.305–306.

44. Сагдуллаев А.С. Ртвеладзе Э. В. В стране золотого огня. –Ташкент: Узбекистан, 1983. – 92 с.
45. Сагдуллаев А.С. Усадбы древней Бактрии. –Ташкент: Фан, 1987. –139 с.
46. Сагдуллаев А. Қадимги Ўзбекистон илк ёзма манбаларда. –Тошкент: Ўқитувчи, 1996. –112 б.
47. Сагдуллаев А., Аминов Б., Мавлонов Ў., Норқулов Н. Ўзбекистон тарихи: давлат ва жамият тараққиёти. – Тошкент: Академия, 2000. – 272 б
48. Сагдуллаев А.С. Қадимги Ўрта Осиё тарихи.–Ташкент: Университет, 2004. 109-б.
49. Сагдуллаев А.С. К интерпретации понятия “басилейа” – “царский город”. //Трансоксиана – Мавераннахр. Сборник статей в чест 65– летия академика Э.В. Ртвеладзе. –Ташкент: 2007.
50. Сагдуллаев А.С. Становление раннебактрийской и раннесогдийской государственности. /История государственности Узбекистана. Т.І. –Ташкент: Узбекистан, 2009. – С.61-88.
51. Сагдуллаев А. С. Шайдуллаев А. Ш. Мустакиллик даврида Сурхон воҳаси бронза ва илк темир даври ёдгорликларини урганилишининг айрим жихатлари. –Ташкент: 2014.
52. Сагдуллаев А.С. Култура Северной Бактрии в эпоху поздней бронзы и раннего железа (по материалам памятников района Шурчи-Байсуна). Автореферат на соис.уч.ст.канд. ист. наук. –Ленинград. 1978.
53. Сагдуллаев А. С. Оседлые области юга Средней Азии в эпоху раннего железа: Генезис культуры и социально-экономическая динамика. Автореферат на соис.уч.ст. докт. ист. наук. – Ташкент. 1988.
54. Сулейманов Р. Х. Древняя Култура Южного Согда (VII в. до н.э. - VII в. н.э.). Автореферат на соис.уч.ст.канд. ист. наук. –Самарканд. 1997.
55. Сарианиди В.И. Древние земледельцы Афганистана. Материалы советско–афганской экспедиции 1969–1974 г. –М: 1977. –172 с.

56. Сарияниди В.И. Храм и некропол Тиллятепе. –М.: Наука, 1989. –240 с.
57. Сарияниди В.И. Задолго до Заратуштры (Археологические доказательства протозороастризма в Бактрии и Маргиане). –М.: Старый сад, 2010. – 202 с.
58. Снесарев Г.П. Хорезмские легенды как источник по истории религиозных култов Средней Азии. –М.: Наука, 1983. – 213 с.
59. Ставаский Б.Я. Средняя Азия и Ахеменидский Иран / История Иранского государства и культуры. –М.: Наука, 1971. –С.153–163.
60. Толстов С.П. По следам древнехорезмийской цивилизации. – М.–Л.: Изд-во Академии наук СССР, 1948. – 328 с.
61. Толстов С.П. По древним делтам Окса и Яксарта. –М.:Наука, 1962. – 324 с.
62. Чайлд Г. Арийцы. Основатели европейской цивилизации. Пер. с англ. И.А. Емеца. –М.: Центрполиграф, 2007. –270 с.
63. Шайдуллаев Ш. Б. Ўзбекистон ҳудудида давлатчиликнинг пайдо бўлиши ва ривожланиш босқичлари (Бақтрия мисолида). т.ф.д. илм. даражасини олиш учун ёзилган автореферат. –Самарқанд. 2009.
64. Шайдуллаев Ш.Б. К вопросу о локализации Паретака, Бубакена и Габаза. //Формирование и развитие трасс ВШП в Центральной Азии в древности и средневековье. Тез. докл. международного семинара ЮНЕСКО. – Ташкент. 1990.
65. Шайдуллаев Ш.Б. Қадимги Сўғд ҳудудида илк шаҳар маданиятининг шаклланиши ҳақида айрим мулоҳазалар. /Самарқанд шаҳрининг умумбашарий маданий тараққиёт тарихида тутган ўрни Самарқанд шаҳрининг 2750 йиллик юбилейига бағишланган халқаро илмий симпозиум материаллари. –Тошкент-Самарқанд. 2007. 41-42 бетлар.
66. Шайдуллаев Ш.Б. Л.Станчо Бақтиянинг Яз I даврига оид янги ёдгорликлар. //Археология Узбекистана в годы независимости: достижения и перспективы. Материалы международной научной конференции,

посвященной 25-летию Независимости Республики Узбекистана. – Самарканд. 2016.

67. Ширинов Т., Шайдуллаев Ш. Бақтрия минг шаҳарли мамлакат. //“Термиз: тарихий тадқиқотлар, илмий хулосалар”. –Ташкент: 2001.

68. Фрай Р. Наследие Ирана. – М.: Восточная литература, 1972. – 467с.

69. Ходжаева Н. Географические реалии «Авесты» и современная Центральная Азия. //Арийская цивилизация в контексте евроазиатских культур. –Душанбе. 2006. –С.724–727.

70. Ходжаева Н.Дж. Динамика развития географических представлений о Центральной Азии в древней и раннесредневековой Иранской традиции. Дисс. на соис.уч.ст. докт. ист. наук. –Душанбе. 2016.

71. Ходжаева Н. Локализация авестийских гор Хара Березаити, рек Вахви–Датия, Ранха и моря Ворукаша. – Душанбе: Дониш, 2003. –135 с.

72. Хорезм в истории государственности Узбекистана. –Ташкент: Ўзбекистон файласуфлари миллий жамияти, 2013. – 336 с.

73. Хўжаев А. Буюк ипак йўли: муносабатлар ва тақдирлар. –Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2007. –280 б.

74. Гуломов Я.Ғ Хоразмнинг суғорилиш тарихи (қадимги замонлардан ҳозиргача). –Ташкент: Фан, 1959. –319 б.

75. Литвинский Б.А., Пичикиан И.Р.Тхе Ионис Сапитал фром тхе Темпел оф тхе Охус (Нотхерн Бастриа). //Ираниса Антиқуа. 1998. XXXIIII. –П. 233-258.

76. Fussman G. Monnaie d'or de Kaniska inedited, au type du Buddha. //Revue numismatique. Tome XXIV. 1982. –P. 155-169.

77. Франсфорт Н.П. Дес фортисафтионс эн Асиа Сэнтрале. –Парис. 1982.